

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**


T A R I X F A K U L T E T I



5140600 «Tarix» ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Aliqulov Sirojiddin Komilovichning
“Mang’itlar davrida Buxoro amirligining iqtisodiy tarixi”
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI


Ilmiy rahbar: «Tarix» kafedrasi dotsent,
tarix fanlari nomzodi E. Qosimov



«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Tarix» kafedrasi mudiri

t.f.n., dots Z.A. Ilhomov

2014 y. « 23 » 

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Buxoro amirligining tashkil topishi. Mang'itlar sulolasining xokimiyat tepasiga kelishi.....	8
Amirlikning o'ziga xos xususiyatlar.....	8
Mang'itlar sulolasining davlat boshqaruvi an'analari.....	19
Buxoro amirligining iqtisodiy ahvoli va savdo aloqalari.....	28
Amirlikdagi iqtisodiy ahvol va mulkiy munosabatlar.....	28
Amirlikda savdo-sotiqning rivojlanishi sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi.....	33
Buxoro iqtisodiyotiga chor Rossiyasi kapitalining kirib kelishi oqibatlari.....	40
Dars ishlanmasi: XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi	48
Xulosa.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	66
Ilovalar.....	69

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugun, biz talabalarning oldida o'ta muhim vazifa turibdi, u ham bo'lsa tariximizni kelajak avlodga haqqoniy tarix sifatida yetkazish. O'zbekistonda davlatchilik bo'lmagan, deb orqavorotdan tashviqot yuritayotgan, xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga harakat qilayotgan kuchlarga zarba berishga tayyor bo'lishligimiz zamon talabi bo'lib qolmoqda. Prezident I.A.Karimov aytganidek "Hammamiz shu tuproqning suvini ichganmiz, non tuzini yeganmiz. Hammamiz o'zimizni o'zbek sanaymiz. O'zligimizdan faxrlanamiz, g'ururlanamiz. ...qadim ajdodlarimiz hayotining asosini o'troq madaniyat tashkil etganmi yo ko'chmanchi? O'zbek xalqining shakllanishida qanday elatlar ta'siri bo'lgan?"¹ degan og'ir savollarni qo'yib, unga javob topishga undaydi. Ana shu savollarga javob topish maqsadida, ilmiy asosda tushunib olish uchun Mang'itlar davrida Buxoro amirligining iqtisodiy tarixini ilmiy jihatdan malakaviy ish sifatida o'rganishga kirishdik. Vatanimiz tarixida XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro hududining juda ko'p shaharlarida karvonsaroylar kurilishiga katta e'tibor berildi. Aynan mana shu davrda Buxoroning kushni davlatlari va Rossiya, Eron, Hindiston davlatlari bilan savdo aloqalari tez sur'atlar bilan rivojlanib borgan. Ichki bozorda Buxoro, Samarkand, Qarshi, G'uzor shaharlari amirlikning yirik savdo markazlari xisoblangan. Ushbu shaxar bozorlarida pulning kiymati va mahsulotlar tannarxi belgilangan.

Buxoro bozori nafaqat shaxarliklar, balki uning atrofidagi qishloklar aholisining talablarini qondirishda ham, aloxida ahamiyatga ega bo'lgan eng yirik savdo markazlaridan hisoblangan. Buxoro bozorida kuchmanchi chorvadorlar o'z mahsulotlarini Buxoro hunarmandlari mahsulotlariga ayirboshlashgan. Buxoro bozorida parcha, duxoba, har xil chitlar, ipak matolar, temir, tilla, kumush, mis, chuyan idishlar, qog'oz, igna, turli xil iplar yaxshi savdo qilingan.

Buxoroda yanvar oyidan may oyigacha savdo yaxshi bo'lgan. Bu davrda savdo yarmarkalari tashkil qilingan. Bu savdo yarmarkalariga Eron, Afg'oniston,

Hindiston, Xitoy, Rossiya va amirlikning barcha viloyatlaridan savdogarlar tashrif buyurishgan. Bu savdo mavsumida nihoyatda ko'p maxsulotlar ortgan savdo karvonlari Buxoroga kelishgan. Savdo karvonlari ular uchun muljallangan maxsus karvonsaroylarda tuxtashgan. XIX asrning boshida Buxoroda chet ellik savdogarlar uchun muljallangan 10 ta karvonsaroy bo'lgan. XIX asrning 40-yillariga kelib esa 24 ta toshdan qurilgan va 14 yogochdan yasalgan, jami 38 ta karvon saroy mavjud bo'lgan. Buxoro shaxrining bosh bozori Registonning markaziy maydonida joylashgan bo'lgan.²

Buxoro savdogarlari qo'shni davlatlar va xalqlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor berganlar. Ko'chmanchi qozoqlar Buxoro amirligiga cho'l mahsulotlari, ya'ni palaslar, namatlar va o'troq aholi uchun kerakli bo'lgan muhim xom ashyo — jun va terini ko'plab keltirishgan.

Buxoro dehqonlari va xunarmandlari esa, o'z navbatida, qozoq dashtlariga non, oziq-ovqat mahsulotlari, sabzovotlar, kiyim-kechaklar paxta matolari yetkazib berishgan.

Buxoroda turkman gilamlari nihoyatda katta talabga ega bo'lgan. O'z navbatida turkmanlar Buxorodan kiyim-kechak uchun kerak bo'lgan bo'z va boshqa matolarni olib ketishgan.

Buxoro savdogarlari Balx va Badaxshonda ham katta savdo ishlarini olib borishgan. Bu yerda buxoroliklar qozon, buxoro matolari, Rossiyadan keltirilgan igma, oyna, qaychi va shu kabi boshqa maxsulotlarni olib kelishgan. U yerdan Buxoroga kumush, oltinlar olib qaytishgan.

Uni o'rganish kelajak avlod uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Ongimizdagi o'tmishdan qolgan sarqitlarni tozalash, qalbimizni poklash va ruhimizni tetik qilish naqadar muhim ekanini I.Karimov qator asarlarida muhim muammo sifatida ko'taradi. «Biz fidoiy vatanparvarlarga tayanamiz» (1993), «O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat va mafkura» (1993), «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida»(2011) kabi

¹ Каримов И.А.Тарихий хотрасиз келажак йўқ.Т.: “Шарқ”.1998.12-13-бетлар.

² Холиқова Р.Россия-Бухоро: тарих чораҳасида. Т.: “O'qituvchi”. 2005. 90-бет.

asarlarini ko'rsatish mumkin.

Olimlar sovet davrini tadqiq qilganlarida o'sha davrda ilgari surilgan soxta g'oyalarga, soxtalashtirilgan tarix o'rniga yangi fikr mulohazalarni ilgari surishi shu kungacha yechilmagan "savollarga javob topishlari kerak" degan vazifani ilgari suradi. I. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'k" asarida bu masalaga yondashuvning ilmiy-metodologik asosini bayon etib quyidagilarni yozadi; bunga javob bitta: "bizning ajdodlarimiz, xalqimiz, qadim-qadimdan o'troq yashagan. Milatimizning iligi o'troq madaniyat sharoitida qotgan. O'zbek xalqining iligi to'q va baquvvat. Shuning uchun ham ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi. Lekin xalq boqiy qolaveradi. Uning madaniyati abadiy yashaydi. Tarix-xalq ma'naviyatining asosidir"³.

Shuni ta'kidlash lozimki, eski tuzum inqirozga duchor bo'lib, sobiq ittifoq porakandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin siyosiy ijtimoiy vaziyat, o'zligimizni anglash va toptalgan milliy g'ururimizni tiklashga qaratilgan intilish kuchayib borganligini ko'pgina asarlarda ko'ramiz⁴. Mustaqillik davrida chop etilgan N.Jo'raev asarlarida yangicha qarash, va yangicha tahlil namoyon bo'lgan⁵.

D.N.Logofetning ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro amirligining „Qashqadaryo vohasi, Surxondaryo vohasi, Yakka-bog', Kitob, Chiroqchi, Qarshi, Shahrisabz, G'uzor, Termiz tumanlarida paxta katta miqdorda yetishtirilgan”.⁶

P. I. Demezoning ma'lumotlarida Buxorodagi paxtachilik masalasiga tuxtalib, shunday fikrlar bildirilgan. „Paxta Buxoro atroflarida, Miyonkolda, Karmanada va Samarqandda muvaffaqiyatli yetishtiriladi va u ancha yaxshi sifatli

³ Каримов И.А.Тарихий хотрасиз келажак йўқ.Т.: "Шарқ".1998. 20-21-бетлар.

⁴ Қаранг: Каримов И.А.Ўзбекистон мустақиллика эришиш оstonасида. Т.: Ўзбекистон. 2011; Каримов И.А. Истиқлол йўли:муаммолар ва режалар. 1 том. –Т.: Ўзбекистон.1993; Каримов И.А. Элни Ватан манфаати бирлаштиради. 1 том ; Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.-Т.:Ўзбекистон, 1996; Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон..2007;Тухлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиёти. - Т.: "Ўзбекистан", 1992; Эргашев К. Ўзбекистонда халқ таълими ривож тарихи. - Т.: "Ўқитувчи". 1998. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Т.12жилд, Ўзбекистонинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи.-Т.: "Шарқ".2000-2001; Азизхужаев А. Чин ўзбек иши. - Т.: Академия, 2003; Бобобеков Х. Фарғона фожиялари кундалиги "Фан ва турмуш". 1990, N 5;

⁵ Жўраев Н. Тарих фалсафаси. Т.: "Маънавият" 1999; Тафаккурдаги эврилиш.Т.: "Шарқ",2001; Янгиланишлар, концепциялар; яратилиш, эволюцияси, амалиёти. Т.: "Маънавият".2002;

⁶ Холиқова Р.Россия-Бухоро: тарих чораҳасида. Т.: "O'qituvchi". 2005.86-бет.

hisoblanadi. Qarshi va Chorjuy paxtalari sifat jixatdan past hisoblanadi”.⁷

Taxlillar shuni ko’rsatadiki, savdo-sotiq ishlari aylanmasidagi katta ulush Buxoro amirligi hissasiga to’g’ri kelgan. Bu davrda ham Buxorodan Rossiyaga, asosan paxta va undan tayyorlangan mollar olib borilgan. Amirlikning Buxoro, Samarqand, Qarshi, Kattaqo’rg’on, Shahrisabz, Denov kabi yirik shaharlari asosiy savdo markazlari hisoblangan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. O’zbekiston tarixida, o’zbek xalqining shakllanishida, Buxoro amirligining iqtisodiy tarixi Yevropadagi bu davrda mavjud bo’lgan tizimga xos bo’lgan o’zgarishlar bilan kechdi, ularni yangicha yondashuv asosida tahlil qilib, inqiroz omillarini tatqiq etib, davrga xos ilmiy xulosa va fikr mulohaza bildirish.

Maqsaddan kelib chiqib qo’yidagi **vazifalar** belgilandi:

- Buxoro amirligining tashkil topishi. Mang’itlar sulolasining xokimiyat tepasiga kelishi. Amirlikning o’ziga xos xususiyatlar yoritish
- Mang’itlar sulolasining davlat boshqaruvi an’analari o’rganish.
- Buxoro amirligining iqtisodiy ahvoli va savdo aloqalari mulkiy munosabatlarni tahlil qilish.
- Amirlikda savdo-sotiqning rivojlanishi sanoat ishlab chiqarishining shakllanish jarayonini tadqiq etish.
- Buxoro iqtisodiyotiga chor Rossiyasi kapitalining kirib kelishi oqibatlarini bilish
- Mang’itlar davrida Buxoro amirligining iqtisodiy ahvoli bo’yicha dars ishlanmasi tayyorlash.

Mavzuning ob’ekti: Buxoro amirligining iqtisodiy tarixi.

Predmeti: Buxoro amirligining iqtisodiy tarixida siyosiy tizim, iqtisodiy munosabatlar, an’anaviy ishlab chiqarish, savdo-sotiq munosabatlari.

Mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyati. Malakaviy ishimiznin ilmiy ahamiyati ham shundaki Buxoro amirligining iqtisodiy tarixi ilmiy asosda tahlil va

⁷ Ўша манба. 87-бет

tadqiq etiladi. Amalda esa tarix faniga qiziquvchilar o'z dunyoqarashlarini shakllantirishda o'sha davr tarixiy jarayonlarini o'rganishda foydalanishlari mumkin bo'ladi. AL va KXX larida dars o'tish jarayonlarida qo'llash imkoniyati paydo bo'ladi.

Malaka ishining nazariy-metodologik asoslari. BMI da Prezident I.A.Karimov asarlari, nutq-farmonlari, Konstitutsiyamizning asosiy g'oyalari, Vazirlar Mahkamasi va Oliy majlisning qarorlari nazariy-kontseptual asos bo'ldi. Tarixiy xolislik, mantiqiy birlik, obektiv yondashuv, sabab va mohiyatidagi uzviylikni saqlash usullari asosida o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Kirish, 3 ta bob, 5 ta band (paragraf), xulosa, foydalanilagan adabiyotlar ro'yxati va dars ishlanmasidan iborat.

I. BOB.BUXORO AMIRLIGINING TASHKIL TOPISHI. MANG'ITLAR SULOLASINING XOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI.

1.1. AMIRLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

MANG'ITLAR — Buxoro amirligini boshqargan sulola (1757—1920). Uning vakillari Mang'it qabilasiga mansub bo'lganlar. Tarixiy tadqiqotlarda keltirilishicha, mang'itlar yirik turkiy urug'lardan biri bo'lib, ular dastlab XII-XIII asrlarda Dashti Qipchoq, Idil (Volga) va Yoyiq daryolari oralig'ida yashagan. XIV asrning oxirida Oltin O'rda davlatidan ajralib chiqib, alohida Mang'it O'rdani tashkil qilganlar. XV asr o'rtalarida mang'itlar no'g'aylar (nog'aylar) deb atalgan. Mang'it O'rda ham bu paytdan boshlab No'g'ay O'rda (No'g'ay xonligi) nomini olgan. No'g'ay O'rda davlatida asosan mang'itlar va qo'ng'irotlar yashagan. XVI asr o'rtalarida bu davlat ikkiga katta va kichik No'g'ay davlatlariga bo'linib ketgan. Keyinchalik Katta No'g'ay tarkibidagi mang'itlar qavmi o'zbeklar, qoraqalpoqlar va qisman qozoqlar tarkibiga kirganlar⁸. Ashtarxoniylar sulolasi o'rniga kelgan Muhammad Raximning taxtga rasman o'tirishi (1756 y. 16 dek.) dan boshlangan. Muhammad Rahimxon Qarshi tomonda yashagan “Oy eli to'q mang'it” urug'ining vakili bo'lib, ekin yerlari, mulk, chorva mollari va katta sarmoyaga hamda o'z qabilasi va qo'shni qabilalar o'rtasida e'tibor va nufuzga ega edi. O'z kelib chiqish rishtalari jihatidan ba'zi mang'itlar ashtarxoniylar, temuriylar va chingiziylarga bog'lanadi. Muxammad Raximxon o'zbek (turk) xalqidan bo'lib, chingiziylarga aslo bog'lanmaydi⁹. Mang'itlar qavmining to'q mang'it urug'iga mansub bo'lgan sulolasi vakillari Buxoro amirligida katta imtiyozlarga ega bo'lib bordilar.

Uning vafotidan so'ng taxt vorisi etib Fozil tura (qizining o'g'li), keyin Ubaydullaxon tayinlangan bo'lsada, davlatni amalda amakisi Doniyolbiy otaliq (1758—85) boshqargan.

⁸ Рахматов М. Мангитлар уруғи тарихидан.// Ўзбекистон тарихи ёш тадқиқотчилар нигоҳида. Т.: “O'zbekiston”.2010.27-бет.

⁹ Ўша манба. 29-30 бетлар.

Doniyolbiy (1758-1785) - *mang'itlarning* nufuzli biylaridan, *otaliq*. Buxoro amiri *Muhammad Rahimning* katta amakisi. 1758 y. 24 martda Muhammad Rahim vafotidan so'ng uning o'g'illari bo'lmagani uchun xonlik taxtiga voyaga yetmagan nabirasi Foziltura o'tqazilgan, *Miyonkol* hokimi bo'lgan Donyolbiy unga otaliq qilib tayinlangan. Bundan norozi bo'lgan viloyat hokimlari, kenagas, yuz, bahrin, burqut va saroy qabilalari amirlari markazlashgan hokimiyatga qarshi isyon ko'tarib, 10 ming yigitni qurollantirib Buxoro tomon yurishgan. Ularga qarshi chiqqan Donyolbiy isyonkor viloyat hokimlari bilan bir bitimga kelishgan. Unga ko'ra, Fozilturani taxtdan tushirib, o'rniga ashtarxoniy shahzodalardan bo'lgan Abulg'ozi xonlik taxtiga o'tqazilgan (1758— 85). Donyolbiy ham otaliq mansabini, ham amaldagi hukmdorlikni o'z qo'lida saqlab qolgan. Donyolbiy otaliq davrida ham o'zaro urushlar davom etib, Karmana, O'ratepa, Nurota, Sherobod, Boysun va boshqa joylarda mahalliy kuchlar bosh kutarib, poytaxt izmidan chiqishga harakat qilganlar. 1781 yil Rossiya hukumati Buxoro bilan savdo bitimi tuzishni taklif etganida Donyolbiy bu bitimni 92 o'zbek qabilasi boshliklari roziligi siz imzolay olmasligini bildirgan. Bu holat Donyolbiy davrida Buxoro amirligidagi siyosiy markazlashuv darajasi Muxammad Rahim davridan ancha past bo'lganidan darak beradi. Bu tabiiy suratda Buxoro shahar aholisining noroziligiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari Donyolbiy qo'shin ta'minoti uchun ko'plab qo'shimcha soliqlar joriy etib, bu bilan poytaxtdagi hunarmandlar va savdo ahlini o'ziga qarshi qaratib qo'ygandi. 1784 y. Buxoroda qo'zg'olon ko'tarilib, unda mingga yaqin kishi o'ldirilgan. Donyolbiy hokimiyatni shaharliklar orasida obro'-e'tibori baland bo'lgan o'g'li *Shohmurod* (1785—1800) ga topshirishga majbur bo'lgan. Buxoro xonligini birlashtirish va markazlashtirish uchun kurashni Shohmurod davom ettirgan. Shohmurod Donyolbiy joriy etgan soliqlarni bekor qilgan. Mang'itlardan bo'lgan buxorolik tarixchi Muhammad Yoqubning yozishicha: «Donyolbiy saxiy va muruvvatli xokim sifatida mashhur bo'lgan, lekin davlat (moliya) ishlari bilan qiziqmagan. Biron ishni boshlashdan oldin ishning

ko'zini biladigan kishilar bilan maslahatlashgan». Donyolbiy xonlik unvonini qabul qilmagan, otaliq unvoni bilan qanoatlangan¹⁰.

Keyingi Mang'it xukmdorlari: Shohmurod (1785-1800), Muhammad *Doniyolbiy* otaliqning o'g'li. Shohmurod otasi vafot etgach, uning «amir-ul umaro» unvonini qabul qilgan va rasmiy ravishda Buxoro taxtida o'tirgan chingiziy Abulg'ozixonni hokimiyatdan chetlatib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qilgan (1785 y. 9 iyun). O'nta ukasining har biriga bittadan viloyat hokimligini berib, siyosiy tarqoqlikka barham bergan.

Shohmurod faol ichki va tashqi siyosat olib borgan. Shohmurod pul islohoti o'tkazib, sof kumushdan tanga zarb qildirgan. Zamondoshlari va kelajak tarixchilari Shohmurodni «Amiri ma'sum» («Begunoh amir») va «Umari soniy» («Ikkinchi Umar»), «g'oziy» unvonlari bilan tilga olishadi. Shohmurod Marv, Balx va boshqa hududlarni Buxoroga qaytarish uchun Xurosonga qilgan harbiy yurishlarida uning qo'shinlari g'olib chiqqan, Marv, Balx, Maymana va Andxuy Buxoroga qaytarilgan. Shohmurod Usmonli turk sultonligi va Rossiyaga bir necha marta elchilar jo'natgan. Shohmurod tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan «Ayn fi-hikmat» («Donishmandlik asoslari») asarini yozgan, hanafiya mazhabiga doir «Fatava-yi ahli Buxoro» («Buxoro ahliga fatvolar») to'plamini tuzgan.

Shohmurod davrida Buxoro va Samarqandda ko'plab madrasalar, masjidlar, xonaqolar va turli binolar qurilgan. Xususan, Zarafshon vodiysidagi dehqonchilikka katta e'tibor qaratilib, Zarafshon daryosidan turli ariqlar (Qozonariq, Toyman arig'i, To'g'uzariq), Oqdaryo va Qoradaryodan yangi ariqlar chiqarilgan hamda boshqa sug'orish inshootlari qurilgan. Shohmurodning o'zi Samarqandni qayta qurish tarkini chizgan. Shohmurod shaharda 24 ta mavze qurib, mamlakatning sharqiy viloyatlaridan bu yerga aholini ko'chirib keltirgan. G'uzorda Madrasa va masjid qurdirgan. Shuningdek, Shohmurod hukmronligi yillarida Doniyolbiy davrida boshlangan Xalifa Xudoydod majmuasi qurilishi

¹⁰ ЎзМЭ. 3 –жилд 353-354- бетлар.

davom ettirilgan. Shohmurod Jo'ybordagi Eshoni Imlo qabristonida piri Shayx Safar qabri oldida dafn etilgan¹¹.

Buxoro amirligi monarxiya boshqaruv tizimiga asoslangan (ilova № 1 ga qarang) bo'lib, davlat boshida amir turgan, viloyatlarni beklar va amlokdorlar boshqargan va ular o'z navbatida amirga buysungan. Mamlakatda davlat boshqaruvi to'laligicha shariat konunlari asosiga qurilgan edi. Davlat boshqaruvi idoralari markaziy va maxalliy tizimlardan tashqil topgan. Mahalliy boshqaruvda viloyatlarni amir tomonidan tayinlangan beklar boshqargan, bekliklar o'z o'rnida amlokliklarga bo'lingan. amlokliklar o'z tarkibiga bir necha qishloqlarni qamrab olgan. Amlokdorlar bek tomonidan tayinlangan. qishloqlarni esa qishloq oqsoqollari boshqargan.

Davlat boshqaruv tizimida din alohida o'rin tutgan. Bekliklarda sud va mirshablik ishlari uch toifaga bo'lingan:

1. Qozi — shariat qonunlari asosida hukm chiqaruvchi. Uning qo'li ostida mulozimlari va kotibi bo'lgan.
2. Muftiy-shariat ishlari bo'yicha ma'lumotlar beruvchi va fatvo tayyorlovchi ruhoniy. Uning ham qo'l ostida 2-3 tadan yordamchilari bo'lgan.
3. Rais—mirshablik ishlari bilan shug'ullangan. Ya'ni islom dini amallariga rioya qilinishini, savdo, oila, meros va boshqa sohalarni nazorat qilgan¹².

Ba'zi rus manbalarida Surxon vohasining bir qismi Xisor vohasi tarkibiga kirganligi hamda u umumiy nom bilan Xisor vohasi deb ham yuritilganligi aytiladi. N.Maevning ma'lumotlariga ko'ra, Xisor vohasida 7 ta: Sherobod, Boysun. Denov, Yurchi, Xisor, Qo'rg'ontepa va Qabodiyon bekliklari mavjud bo'lgan. Bu bekliklardan tashqari Darband, Sarijo'y va Fayzobod amlokliklari bo'lib, ularga amlokdorlar Buxoro amiri tomonidan tayinlangan. Viloyatlarning qozi va raislarini ham amirning o'zi tayinlagan¹³. Boshqa qishloq va shaxar amlokdorlarini

¹¹ ЎзМЭ.10 –жилд. 111- бет

¹² Маджлисов А. Аграрные отношения в Восточной Бухаре XIX-нач. XX в. Душанбе-Алма-Ата: Ирфон. 1967. С-53.

¹³ Ўша манба.

beklarning o'zlari tayinlaganlar. Buxoro amirligining sharqiy hududlariga kiruvchi Surxon vohasi amirlikda o'z nufuziga ega bo'lgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asr o'rtalariga qadar Surxon vohasida Sherobod, Boysun, Denov va Yurchi beklilari mavjud bo'lgan.

Bu davrda Sherobod bekligida amloliklar qo'yidagicha taqsimlangan: Tallashkon, Saidobod, Gilambob, Salavot, Jarqurg'on, Sherobod shahri atrofidagi aholi maskanlari, Tallimaron, Boysun bekligi: Boysun, Yaumchi, Rabot, Darband, Sayrob, Xatak, Zarabog', Poshxurd, Buzravot, Kakaydi amloliklaridan tashqi 1 topgan. Denov bekligi: Sina, Qarlui, Pustindara, Xadrasha, Do'rmon, Gardikurgon amloliklaridan iborat bo'lgan. Yurchi bekligi amloliklari: Sangardak, Pashor, Chambulok va Yurchi shaxrini o'zichiga olgan. Hozirgi kunda ma'muriy jixatdan Surxondaryo viloyati tarkibiga kiruvchi Dashnobod, Sariosiyo, Sarijuy amloliklari esa Xisor bekligi tarkibida bo'lgan.

Amir Shoxmurod Zarafshon vodiysi, Amudaryo va Qashqadaryodagi sun'iy sug'orish tizimini qayta tikladi. Buxoro axolisini bojdan, xunarmand-larni kundalik yig'implardan, mehnat majburiyatidan va soliqdan ozod etuvchi tarxon yorlig'ini berdi. Xiroj va nikox puli, tarozi haqi va boshqa yig'implar kamaytirildi. Sud tizimi qayta tuzildi. Davlat hokimiyati mustahkamlandi. Amir Haydar davrida o'zaro urushlar kuchaydi. U Amudaryoning janubiy sohili, yuqori Zarafshon, Shahrisabz va Miyonkolni saqlab qolish uchun kurash olib bordi. Haydar (1800-1826), Amir *Shohmurod*ning o'g'li, *Doniyolbiy* otaliqning nevarasi. Uning onasi *ashtarxoniylardan Abulfayzxonning* qizi Bonu Shams bo'lgan. Buxoro madrasalarida 10 yil tahsil olib, Qur'oni karim sharhi va hadis ilmlarini puxta egallagan. Amir Shohmurod Haydarni Qarshi viloyatiga hokim qilib tayinlagan. Shohmurod vafot etgach, Buxoro amirligi taxtiga o'tirgan va «amir al-mo'minin». unvonini olgan (1800.2.12). Buxoro amirligida vujudga kelgan keskin siyosiy vaziyatni yumshatishga harakat qilgan. Haydar ayirmachilik kayfiyatlarni namoyon qilayotgan Shahrisabz, Kitob, Urgut beklilari, Miyonqol va Samarqand hokimlariga qarshi janglar olib borishga majbur bo'lgan. Haydar Xurosonga ham

harbiy yurishlar qilib, Balx (1817), Badaxshon, Qunduz va Maymanani Buxoro amirligiga qaytargan.

Marv hokimi Din Nosirbek (Haydarning ukasi) Xiva xoni Eltuzarxon qutqusiga uchib, akasiga qarshi bosh ko'taradi (1804) va mag'lubiyatga uchraydi. Shu asnoda Xiva xoni Eltuzarxon bir necha marta Buxoroga harbiy bosqinlar uyushtirgan. Ana shunday yurishlarning birida Niyozbek parvonachi boshchiligida 20 ming kishilik Buxoro qo'shini xorazmliklar qo'shinini mag'lubiyatga uchratgan. Eltuzarxon Amudaryodan qochib o'tayotganda daryoda g'arq bo'lib o'lgan. Eltuzarxonning 3 birodari va ko'plab xivaliklar asir tushishgan. Amir Haydar Eltuzarxonning kichik birodari Qutoug'murodxonni 400 asir bilan ozod qilib, O'rganchga jo'natgan.

1821—25 yillarda amir Haydarning soliq siyosatiga qarshi xitoy-qipchoqlar ko'targan *Miyonqol qo'zg'oloni* ham katta qiyinchilik bilan bostirilgan.

Ahmad Donishning yozishicha, Haydar hukmronlik qilgan davrda Buxoroda ilm-fan, xususan, tarix va islom ilmlari rivojlangan. Haydar madrasalarda tahsil olib borish uchun Istanbul, Qobul va boshqa shaharlardan ko'plab qo'lyozma kitoblarni oldirgan. Uning o'zi muntazam ravishda saboq bergan, madrasalarda dars o'tgan. Haydar «al-Fa-void al-alfiya» nomli fiqhning xanafiya mazhabiga oid asar ham yozgan.

Uning hukmronligi davrida Buxoroda *Chor minor* va Xalifa Nyayozqul madrasasi (1807), masjidlar, xonaqohlar, hammomlar qurilgan, *Xalifa Xudoydod majmuasi* qurilishi davom ettirilgan. Buxoroda Haydar onasiga atab maxsus Madrasa, Qarshida Ali madrasasi va Mir Muhammad madrasasini ham qurdirgan. Haydar Buxorodagi Jo'ybor mavzeidagi Eshoni Imlo qabristonida otasi Shohmurod yonida dafn etilgan¹⁴.

Nasrullaxon (1826—1860), Buxoro amiri, *mang'itlardan*. Amir Haydarning o'g'li. Otasining hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. Amir Xaydar vafotidan so'ng hokimiyat uchun kurashlarda akalari amir Husayn (1797— 1826) va amir Umar (1826 y. v.e.)ni oradan ko'tarib, Buxoro taxtiga o'tiradi (1826), o'z

hukmronligi davrida islom shariati ko'rsatmalariga qat'iy amal qilgan. Nasrullaxon jasur va dovyurak kishi bo'lganligi bois unga «bahodir», «botir» unvonlari berilgan. Nasrullaxon davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida urug' va qavm boshliqlari bo'lgan ko'plab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtirdi. 1837 yilda harbiy sohada islohotlar o'tkazib, o'z qo'shinining jangovar holatini yaxshiladi. Har biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar bo'luklari va 250 kishilik to'pchilar guruhi tashkil qilingan. Muntazam piyoda qo'shinining soni 40000 kishidan ortiq bo'lgan¹⁵.

Nasrullaxon Xiva va Qo'qon xonliklarini Buxoro atrofida birlashtirishga uringan. Mamlakatning hududiy yaxlitli-gini tiklash uchun Qo'qon xonlari tomonidan tortib olingan Xo'jand, O'ra-tepa, Toshkent, Jizzax va Zominni Buxoro amirligiga qaytardi (1840—42). Farg'ona vodiysi ulamolarining talabi bilan Qo'qonga yurish qilib, xonlik hududini egallagan (1842). Biroq u Qo'qon xoni *Muhammad Alixonni* qatl qilish bilan cheklanmasdan, uning onasi — mashhur shoira *Nodirabegimni* ham o'ldirtiradi. Nasrullaxon tomonidan Qo'qonga Ibrohim parvonachi mang'itning noib qilib qoldirilishi salbiy oqibatlarga olib kelgan. Noib mahalliy aholiga zulm o'tkazib, soliqlarni ko'paytirdi. Natijada tez orada Qo'qon qo'ldan ketadi. Nasrullaxon Marvni ham Buxoroga bo'ysindiradi (1843). SHuningdek, Nasrullaxon qo'shini 20 yillarda olib borgan 32 ta harbiy yurishidan so'ng SHaxrisabzni uzil-kesil egallagan (1856). Shahrizabz markaziy hokimiyatga bo'ysungach, u sulh ramzi sifatida mahalliy hukmdor Iskandar Valloma (valine'mat)ning singlisi Kenagasxonimga uylandi.

Nasrullaxon Buxoroda dafn etilgan.

Mo'zaffar (1860.23.9-1885.13.12. *Mang'itlardan Nasrullaxonning* o'g'li. Otasi davrida Karmanaga hokimlik qilgan. Amir Nasrulla vafotidan so'ng, Buxoro taxtiga o'tirgan. Otasi tomonidan Karmanaga surgun qilingan kishilarni Buxoroga kaytarib, yuqori lavozimlarga tayinlagan. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamayotgan Hisor, SHaxrisabz, Darvoz, Ko'lob, Baljuvon bekliklari va Qo'qon

¹⁴ ЎзМЭ. 11 –жилд. 275-276 - бетлар

¹⁵ ЎзМЭ. 6 –жилд. 279 – бет.

ustiga yurish qilib, ularning qarshiligini yengdi (1863—65). *Mallaxon* tomonidan taxtdan tushirilgan Qo'kon xoni *Xudoyorxon* Buxoroga qochib kelganida xonlik taxtini qayta egallashi uchun unga harbiy yordam bergan¹⁶ (1861).

Abdulahad (1885-1910) Buxoro amiri *Mang'itlardan*. Amir *Muzaffarning* o'g'li. Abdulahad davrida chor hukumati Buxoroda rus siyosiy agentligi ta'sis etib (1886), Turkistonni, jumladan Buxoro xonligini xom ashyo bazasiga aylantirish va bu yerdagi boyliklarni Rossiyaga tashib ketish maqsadida Amudaryoga ko'prik qurdi, Chorjo'y-Samarqand temir yo'l o'tqazdi.¹⁷ (1900—1901). Shuningdek Abdulahad davrida *jadidchilik* harakati kuchaydi.

Amir Olimxon, Amir Sayd Olimxon (1881, Karmana — 1944.28.4, Kobul) — Buxoro amiri (1910—20), *mang'itlardan*. Amir Abdulahadning o'g'li.

Peterburgdagi Nikolaev kadet korpusida ta'lim olgan (1893— 96). 1898 y. Qarshi, so'ngra valiaxd sifatida Karmana bekliklariga hokim bo'lgan. Otasi vafotidan so'ng, Buxoro taxtiga o'tirgan (1910 i. 24 dek.).

Olimxon Ko'lob, Hisor va Dushanba atrofida katta mikkordagi kuchlarni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan. 1920 y. noyab. oyining o'rtalarida uning ko'shinlari Boysun, Darband, SHerobodni qizil askarlardan ozod qilishdi. Olimxon ixtiyoriga Fargonadan yordamga yuborilgan 4000 yigit xam SHarqiy Buxoroga yetib keladi. 1921 y. 8 yanv.da Olimxon qo'shinining miqdori 25000 kishiga yetgan. Hisordan Ko'lob viloyatiga kelgan Olimxon butun qo'shinlariga Ibrohimbekni Oliy bosh qo'mondon (o'rinbosarlar: SHarqiy Buxoroda — *Davlatmandbek* va G'arbiy Buxoroda — *Mulla Abdulqahhor*) qilib tayinlaydi. Biroq, bir qator janglarda mag'lubiyatga uchragach, Olimxon Amu-daryoning CHubek kechuvidan Afgonistonga o'tib ketgan (1921 i. 4 mart).

Olimxonni Qobulda Afg'oniston amiri *Omonullaxon* qabul qilib, doimiy yashashi uchun unga Qal'ai Fotuda maxsus qarorgoh ajratib beradi. U Qobulda yashasa xam Buxorodagi ozodlik harakatiga g'oyaviy jihatdan rahbarlik qilishda davom etdi, ko'rboshilar va ulamolarga turli maktublar va qimmat-baho sovg'alar

¹⁶ ЎзМЭ. 6-жилд. 112 – бет.

¹⁷ ЎзМЭ. 1-жилд. 20 – бет.

jo'natib, ularni kurashga ilhomlantirgan. Olimxon Qobulda o'zining esdaliklarini yozib tugallaydi. Umrining oxirida ko'zi ojizlanib qoladi, og'ir dardga chalinadi. Uzoq davom etgan xastalikdan so'ng u Qal'ai Fotuda vafot etadi. Qobul atrofidagi SHahidoni islom (Islom shahidlari) qabristoniga dafn etilgan. Olimxonning xotiralari Parijda fransuz tilida (1929), keyinchalik G'arbda fors tilida, O'zbekistonda o'zbek va rus tillarida (1991), Tojikistonda tojik tilida (1992) alohida kitob sifatida chop qilingan. Olimxon hukmronligi davrida Buxoroda Olimxon madrasasi qurilgan, Sitorai Mohi Xosa saroyini qurish yakunlangan.

Nasrullaxon mamlakatdagi tarqoqlikni tugatish uchun kurashdi. Yarim mustaqil va kuchli Shahrisabz va Kitob bekliklari buysundirildi. Quqon xonligi tobe etildi. To'xtovsiz urushlar, soliqlar miqdorining ortishi 1821—25 yillarda xitoy-qipchoqlarning Miyonqol ko'zg'oloniga olib kelgan. Nasrullaxon (1827—60 yillarda hukmronlik qilgan) Xiva va Qo'qon xonliklarini Buxoro atrofiga birlashtirishga harakat qilgan. Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax va Zominni Buxoro amirligiga qaytargan (1840-42). Nasrullaxon davlat hokimiyatini mustaxkamlash maqsadida urug' va qabila boshliqlaridan bo'lgan ko'plab amaldorlarni kuyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtirgan. 1837 yil harbiy islohot o'tkazib qo'shinning jangovarlik holatini yaxshilagan. Xar biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar buluki va 250 kishilik tupchilar guruxi tashkil qilingan. Muntazam piyoda *qo'shin* soni 40 ming kishidan oshgan. 1842 yil Farg'ona vodiysi ulamolarining qistovi bilan Nasrullaxon Qo'qonga yurish qilib, qisqa muddatga xonlik hududini egallagan. Qo'qon xoni Muhammad Alixon va uning onasi shoira Nodirani qatl etgan. Nasrullaxon hukmronlik qilgan yillar Turkiston mintaqasida Rossiya-Angliya manfaatlari o'zaro to'qnashgan davr hisoblanadi

Madaniyat sohasi boshqaruv tizimi va xokimiyatning ojizligi orqasida u zamon talabiga monand ravishda rivojlanmadi. Hatto Amir Temur va Temuriylar davridagi madaniyat yutuqlari barbod qilindi. To'g'ri, mad-rasalar qurildi, lekin ularda, asosan, fors va arab tillari, diniy ta'limotlar o'qitildi. Dunyoviy fanlarga deyarli ahamiyat berilmadi. Ulugbekning mashhur rasadxonasi yer qa'riga kumilib

ketdi. Ko'prok diniy va tarixiy asarlar yozildi. Ko'p shoirlar ham yetishib chiqqan. Bu borada Muhammad Solixning «SHayboniynoma», Kamoliddin Binoiyning ham shu nomdagi asarlarini ko'rsatish mumkin. Fazlullox ibn Ro'zbexon «Mexmonnomayi Buxoro» va Zayniddin Vosifiy «Badoe' ul-vaqoe'» nomli asarlarni yozdilar. Sufi Olloyor, Muhammad Balxiy, Sayid Kamol (Fitrati), Sayido Nasafi, Turdi va boshqalar 100 dan ortiq shoirlar ijod qildilar. Bundan tashqari, Mirza Sodiq Munshiyning «Mang'it hukmdorlarining tarixi», Maxmud bin Valiyning «Baxrul asror fi manoqib al-axyor», Muhammad Yusufning «Tarixi Muqimxoniy», Muhammad Aminning «Ubaydullanoma» va boshqa asarlar yozildi. XVI—XVII-alarda Buxoro miniatyura maktabi qaror topgan. 18-a. o'rtalarida Buxoro saroy sozanda, xonanda va bastakorlari ijodiy faoliyatida «Shashmaqom» shakllangan.

Bu davrda, me'morchilik san'atining bir qancha namunalari yaratildi. Umumiy xulosa shuki, XVI—XIX-asrning 60-yillarida Buxoro xonligida o'rta asr boshqaruv tizimining saqlanishi ichki va tashqi urushlar, qo'shinning zaifligi, diniy fanatizmning avj olishi, fan va madaniyatdagi turg'unlik mamlakatni chuqur inkirozga yo'liqtirdi. Bu holatdan foydalangan podsho Rossiyasi Buxoro xonligini bosib oldi. Amir Muzaffar Toshkent muzofotini egallagan ruslar ustiga yurish qildi. Biroq buxoroliklar qo'shini yaxshi qurollanmagan, askarlarning aksariyati harbiy tayyorgarlikdan o'tmagan edi. 1866 yil 8 mayda Yerjar manzilida (hozirgi Janubiy Qozog'iston viloyati hududi) bo'lgan jangda Buxoro askarlari yengilgan va orqaga chekingan. Ushbu jangda amir Mo'zaffar o'zining harbiy layoqatsizligini namoyon qildi. Podsho Rossiyasi qo'shinlari 1866 yil 24 mayda Xo'jand shahri va Navqal'asining 2 oktyabrda O'ratepani, 18 oktyabrda Jizzaxni bosib oldilar¹⁸. Chorizm butun diqqat-e'tiborini Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi hududini tezroq bosib olishga qaratdi.

Buxoro amiri bilan olib borilgan mo'zokaralar esa natijasiz tugagach. 1868 yil 2 mayda general K.P.Kaufman boshchiligidagi 8300 kishilik qo'shin Samarqandni egalladi. 18 may kuni Kattaqo'rg'on ham taslim bo'ldi. 1868 yil 2-3

¹⁸ Ражабов К, Хасанов Ф. Туркистоннинг Россия империяси томонидан босиб олинishi (XIX аср ўрталари-1917 йил февраль). ЎЗМЭ. 12-жилд. 159-164-бетлар.

iyunda Zirabuloqda bo'lgan hal qiluvchi jangda 6 ming sarboz va 15 ming otliqdan iborat bo'lgan Buxoro amirligi qo'shinlari K.P.Kaufmannning tup va zambaraklar bilan yaxshi qurollangan qo'shiniga qarshi mardonavor jang qilsalarda, 1000 kishidan ajralib orqaga chekingan. 1868 yil 23 iyunda Buxoro bilan Rossiya o'rtasida Samarqandda imzolangan sulh shartnomasiga binoan, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarkand va Kattaqo'rg'on shaharlaridan to Zirabuloqqacha bo'lgan Buxoro amirligining yerlari Rossiya imperiyasiga kiritildi va Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Zarafshon okrugi (keyinchalik Samarkand viloyati) tashkil qilindi. Amudaryoda rus kemalarining erkin qatnoviga ro'xsat berildi. Buxoro amiri Mo'zaffar oltin hisobida 500 ming rubl harbiy tovon tulash va rus savdogarlariga amirlikda erkin savdo-sotiq kilish uchun qo'lay shart-sharoit yaratib berish majburiyatini olgan.

Buxoro amirining bunday taslimchilik siyosatiga va podsho Rossiyasi zulmiga qarshi valiaxd Abdulmalik (Katta Tura), Shahrisabz va Kitob bekligini qo'zg'olonga chaqirdi.

Jurabek va Bobobek qarshi chiqib, Samarqand, Shahrisabz va Qarshida qo'zgon kutarishdi. Rus qo'shinlari Samarqandagi qo'zgonni ayovsiz bostirish bilan cheklanmasdan, amir Mo'zaffarning talabi bilan unga qarshi chiqqan Shahrisabz va Kitob beklklarini 1870 yil avgustida egallab, amir ixtiyoriga topshirishgan.

1873 yil 28 sentyabrda Buxoro amirligi bilan Rossiya imperiyasi o'rtasida imzolangan navbatdagi shartnoma natijasida Buxoro amirligi Rossiyaning protektorati deb e'lon qilingan. Zarafshon daryosining yuqori qismi sharqiy Buxoro (Badaxshon va Pomir)dagi ayrim viloyatlar qo'ldan ketgan. Amudaryoning chap sohilidagi yerlar esa (Balx, Mozori Sharif, Shibirg'on, Qundo'z va boshqa) Rossiya va Buyuk Britaniyaning talabi bilan Afg'onistonga berilgan, Buxoro amirligining xorijiy davlatlar bilan aloqa yuritishi ta'qiqlangan.

Shunday qilib, Amir Mo'zaffar davrida Buxoro amirligi Rossiya tomonidan istilo etildi. Amir Abdulaxad va Amir Olimxon hukmronligi vaqtida Buxoroda rus

podsho hukumatining mavqei mustahkamlandi. Buxoro bosqinidan keyin tuzilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgach, Mang'itlar sulolasi tugatildi.

1.2. MANG'ITLAR SULOLASINING DAVLAT BOSHQARUVI

AN'ANALARI

XVIII asr oxirida Buxoro amirligi xududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridagi mulklar kirgan bo'lsa, XIX asr boshlariga kelib, amirlik tarkibiga bu xududlardan tashqari Surxon vohasi, Xisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent hamda Zarafshon daryosining yuqori oqimi va janubiy Turkmanistonning katta qismi ham kirgan. Bularning bari XIX-XX asr boshlarida Buxoro amirligi boshqaruv tizimida o'zgarishlar bo'lib turishiga sabab bo'lgan. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi tasarrufida 44 ta beklik bo'lganligi e'tirof etiladi¹⁹.

Amir *Abdulahad*, hukmronligi davrida avval Shahrisabz hokimi, so'ngra saroyda xizmat qilgan Nasrullo qo'shbegi (19-a. o'rtalari — 1918, Karmana) — *mang'itlar* davrida nufuzli saroy arbobi bo'lgan. *Buxoroda 1910 y. yanvar* voqealaridan keyin Ostanaqul qo'shbegi o'rniga qo'shbegi (bosh vazir) qilib tayinlangan. Said *Olimxon* hukmronligi davrida Nasrullo qushbegi mamlakatda amirdan keyingi nufuzli shaxs sifatida mamlakatning asosiy ishlari bilan shug'ullangan. Rus tilini yaxshi bilgani uchun amir nomidan Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agenti bilan bevosita muloqotlar o'tkazgan, bir necha marta Rossiyaga borgan.

Nasrullo qushbegi Buxorodagi *jadidchilik* harakatiga xayrixoxlik bilan qaragan. Amir Olimxon tomonidan Buxoroda islohotlar o'tkazish to'g'risidagi farmon qabul qilinishida muhim rol o'ynagan (1917 y. 7 apr.). Lekin *Buxoroda 1917y. aprel* namoyishidan keyin Olimxon Nasrullo qushbegini jadidlarni qo'llab-quvvatlaganlikda ayblaydi va uni lavozimidan olib tashlab, o'rniga mutaassib Nizomiddin Urganjiyni qo'shbegi qilib tayinladi (1917y. 15apr.). Nasrullo qushbegi Karmanaga jo'natiladi va mahbuslikda saqlanadi. U *Kolesov*

¹⁹ Ражабов К.Хасанов Ф. Туркистоннинг Россия империяси томонидан босиб олинishi (19 аср ўрталари-1917 йил февраль). ЎзМЭ. 12-жилд. 159-164-бетлар.

voqeasidan keyin amir Olimxonning farmoniga binoan, 17 kishilik oilasi va butun qarindosh-urug'lari bilan birga o'ldirilgan²⁰.

A.G.Radobil'skiyning ma'lumotiga asoslangan N.Kislyakov Buxoro amirligining ma'muriy bo'linishi xaqida to'xtalib, XX asr boshlariga kelib, Buxoro amirligida 24 ta beklik, 7 ta alohida amloklik va 10 ta tuman bo'lganligini ta'kidlaydi²¹. D.N.Logofet esa Buxoro amirligi hududiy jihatdan 25 ta beklikka bo'linishini yozadi.

1912 yilga kelib, Buxoro amirligida 26 ta beklik va beklıklardan mustaqil 11 ta amloklik mavjud bo'lgan,²² ular to'g'ridan-to'g'ri amirga buysungan. Bu davrda SHug'on, Rushon va Vohan beklıkları amirlik tarkibiga kirmay Rossiya imperiyasi nazorati ostida bo'lgan. 1915 yilda Buxoro amirligi 27 ta beklik va 11 ta tumandan iborat bo'lganligi qayd etilgan²³.

Yuqoridagi ma'lumotlar Buxoro amirligidagi beklıklar soni va ma'muriy bo'linishida o'zgarishlar bo'lib to'rganligini ko'rsatadi, bu avvalambor mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqealar, o'zgarishlar bilan bog'lik bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Ba'zi kichikroq beklıklarning

iqtisodiy jihatdan baquvvatroq beklıklar tasarrufiga o'tganligini ko'zatish mumkin (masalan: Yurchi bekligi Denov bekligi tarkibiga, Sariyuy bekligining bir qismi Denov, bir qismi esa Xisor bekligi tarkibiga qo'shib yuborilgan).

Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tobora keskinlashib borishi Surxon vohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Buning oqibatida XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, voha beklıkları va amlokliklari tarkibida bir muncha o'zgarishlar yuz bergan. Boysun bekligidagi 4 ta amloklik bo'lganligi haqida ma'lumotlar berilgan: Boysun, Poshxurd, Darband, Yaumchi, Boysun bekligidagi Rabod, Zarabog', Kakaydi, Xatak, Bo'zrabod, Sayrob amlokliklari xususida bu davr adabiyotlarida ma'lumotlar uchramaydi. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida bu

²⁰ ЎзМЭ. 6-жилд. 112 – бет.

²¹ Холикова Р. Россия-Бухоро: тарих чоррахасида.-Т.: Ўқитувчи, 2005. - Б.27.

²² Кисляков Н. А Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX-начале XX вв. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1962. - С. 43

²³ Холикова Р. Россия-Бухоро: тарих чоррахасида.-Т.: Ўқитувчи, 2005. - Б.27.

amloliklar saqlanib qolgan bo'lishi kerak, negaki Boysun bekligi xududining kattaligi jihatidan vohada yetakchi o'rinda to'rgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Sherobod bekligida Tallashkon, Saidobod, Tallimaron, Gilambob, Jarqurg'on, Solixobod, amlokliklari bo'lganligi etirof etilgan. XX asr boshlarida Sherobod bekligida yettita amloklik: Gilambob, Talashkon, Maydaariq, Saidobod, Jarqurg'on, Pattakesar, Cho'chqago'zar amlokliklari bo'lganligi kursatilgan. Yukoridagi ikki ma'lumotni bir-biriga solishtiradigan bo'lsak, ularning nisbatan o'zaro yaqinligini ko'rishimiz mumkin. Lekin shunisi qiziqki, kapitan Vasilev Pattakesar, Cho'chqago'zar va Maydaariq amlokliklari haqida ma'lumot bermagan. N.Kislyakov ham kapitan Vasilev ma'lumotlariga tayanib, Sherobod bekligida yetita amloklik bo'lganligini yozadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Denov bekligi 11 ta amloklikka bo'lingan (bu davr ma'lumotlarida Yurchi bekligi amloklik sifatida tilga olinib, Denov bekligi tarkibiga kiritilgan). Denov bekligi quyidagi amlokliklarga bo'lingan: Sangardak, Poshor, Chambuloqlar, O'rtakuru, Yurchi, Sina, Karluk, Pustindara, Xadrachi, Durmon. Gardiqurg'on. Denov bekligidagi amlokliklar soni XVIII asr oxiri-XIX asr davomida ham o'zgarmagan. Faqatgina Yurchi bekligi tarkibidagi amlokliklar Denov bekligi tasarrufiga o'tgan.

XIX asrning uchinchi choraklariga kelib, vohada Sarijuy bekligi ham tashkil qilingan. Sarijuy, Sariosiyo, O'rtakuri, Pashor, Chambuloqlar va Yurchi amlokliklari Sarijuy bekligi tarkibiga berilgan. Ko'plab ilmiy adabiyot va maqolalarda Sarijuy bekligi sifatida e'tirof etilgan, ammo u qachondan boshlab bekligi maqomini olganligi haqida ma'lumotlar uchramaydi. Tadqiqotlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, XIX asrning 70-yillarida Hisor begi Sarijuyni o'z o'g'liga alohida bekligi qilib ajratib bergan va uni usha joyga bek etib tayinlagan.

Sarijuy bekligi ma'lum muddat faoliyat kursatib. keyinchalik bekligi maqomini saqlab qololmagan. Manbalarga tayangan holda aniqroq aytadigan bo'lsak, u 1887 yilga qadar bekligi maqomiga ega bo'lib, Sarijuy, Sariosiyo va Denov bekligining O'rtaqo'ri, Pashor, Chambulok va Yurchi amlokliklari uning tarkibida bo'lgan. 1887 yildan so'ng bekligi tugatilib, Sarijuy va Sariosiyo

amlokliklari Hisor bekligi tarkibiga, qolganlari esa yana Denov bekligi tasarrufiga o'tkazilgan.

Davlat boshqaruvi masalasida Buxoro amirligida paydo bo'lgan o'zgarishlar Ahmad Donishning Moskva va Peterburg shaharlarida bo'lishi bilan bog'liq. Uning u yerda davlat boshqaruvining o'ziga xos shakllarini ko'rishi unda boshqaruv tizimiga oid yangidan-yangi qarashlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ma'lumki, mazkur davrdagi Buxoro amirligidagi boshqaruv tizimi davr nuqtai nazaridan qaralganda juda eskirib qolgan hokimiyat CHingizxon zamonidan qolgan tartib asosida boshqarilmoqda edi. SHuning uchun ham Ahmad Donish davlat boshqaruv apparatini zamona talabiga mos xolda qayta qurish kerak, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Rossiya podsholigidagi boshqaruv tizimi Donishning fikricha, Buxoro amirligi boshqaruv tizimidan yaxshiroq edi.

Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar Amir Muzaffarning Peterburgga qilgan tashrifidan so'ng yanada mustahkamlandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ahmad Donish mazkur tashrif tafsilotini o'zining "Navodirul vaqoe" asari va "Amirlar sargo'zashti" risolasida bayon etadi²⁴. Amir Mo'zaffar mazkur safar davomida Rossiya podsholigining harbiy qudrati va salohiyati bilan yaqindan tanishadi. Amirga podsholik askarlarining intizomi va texnik salohiyati juda yoqadi. Ahmad Donishning elchilik faoliyati Buxoro amirligi va Chor Rossiyasi o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning yanada mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. Alloma A. Donish qilgan safarlari davomida Moskva va Peterburg shaharlarida ko'rgan yangiliklarini Buxoroda tatbiq etdi. U maorif tizimiga hamda davlat boshqaruv tizimiga ham oid demokratik islohatlarning tarafdori bo'ldi. Uning Peterburgga qilgan safari va imperator qizining to'yi munosabati bilan yozgan tuqqiz baytlik she'ri orqali imperatorning e'tiborini tortdi va bu bilan undan avvalgi elchilarning qilgan gunohlari ham yuvilib ketadi. Bu xizmati uchun esa imperatordan maxsus tortiq ham oldi. Buxoro

²⁴ А.Дониш Наводирул вақое. Т: «Фан», 1964, 232-233-бетлар.

amirligi va Rossiya imperiyasi munosabatlari Muzaffarxon davrida ya'ni, Ahmad Donish elchiligidan keyin yanada rivojlandi.

Vohaga ruslar kirib kelgandan so'ng Sherobod bekligi tarkibida yangi boshqaruv tizimi joriy qilingan. Termiz ikki qismdan iborat bo'lib. uning harbiy garnizon joylashgan sharqiy qismi qal'a bilan o'rab olingan. Shaharning bu qismida xokimiyat garnizon boshlig'ining qo'lida bo'lib, shu hudud aholisi ham unga buysunardi. Termizning janubiy qismi Pattakesar qishlog'i deb atalgan, undagi mahalliy aholi Buxoro amirining qonunlariga amal qilib, amir tomonidan tayinlangan beklarga buysunar, bu yerda yashagan rus fuqarolari (yevropalik aholi) esa Rossiya imperiyasi, ya'ni shahar kengashi tomonidan idora qilinardi. Shunday qilib, birgina Termizning o'zida uch xil boshqaruv tizimi mavjud bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Bunday murakkab boshqaruv tizimi mahalliy aholiga ham katta qiyinchiliklar tug'dirgan. O'zbek davlatchiligi tarixiga nazar tashlasak, Buxoro amirligidagi davlat boshqaruvi siyosatining o'ziga xosligi, ayniqsa so'nggi amirlardan bo'lgan Amir Mo'zaffarning mamlakat iqtisodiy xayotini ko'tarishda tijoratchi va tadbirkor shaxslarga yaratgan imkoniyatlari, xamda mamlakatda ro'y bergan o'zgarishlar va ularning jamiyat hayoti uchun favqo'lodda muhim ahamiyatini alohida e'tirof etish joiz hisoblanadi.

Amirlikdagi yuqori diniy amaldorlardan biri hisoblangan shayxulislom XVII—XVIII asrlarda davlatda eng oliy toifali din vakili hisoblangan. Ammo biz ko'rib chiqayotgan davrda uning vazifalari ancha torayib, asosan, arzlar va Payg'ambar hamda uning xalifalari bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan masalalarni ko'rib chikishdan iborat bo'lib qolgan.

XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida shayxulislom o'rnini *qozi kalon* egallaydi. Amir huzuridagi kengashda din vakillaridan qozikalon, shayxulislom, naqib va rais (muhtasib) qatnashgan. Aslida esa Buxoro amirligida rasman uchta diniy unvon: 1) o'roq, 2) sudur va 3) sadr mavjud bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlar shundan guvohlik beradiki, madrasani tugatgan shaxs mulla, qozi, rais amallarini egallashlari mumkin bo'lgan. Yuqoridagi amallarda bir necha yil

ishlagandan so'ng, fikh sohasida qo'lga kiritgan yutukdari asosida unday shaxslarga dastlab *o'roq*, keyin *sudur* va so'ngra *sadr* unvonlari berilgan.

Eng oxirgi — yuqori diniy unvon sohibi bo'lgan shaxs *qozi kalon*, *muftiy a'lam*, *oxun* kabi diniy amallarni egallashi mumkin bo'lgan.

Buxoro amirligida din vakillarining kuchi va ta'siri ancha salmoqli bo'lgan. Bu to'g'rida A. A. Semenov to'xtalib o'tib, din vakillari ko'p holatlarda amirning u yoki bu qarorlariga o'z e'tirozlarini bildirib, ularni o'zgartirishga majbur qilganlar, bu esa amirni noqulay ahvolga solib qo'ygan", deb ko'rsatib o'tgan. Buxoro amirligida din vakillari sudni, odamlar xulqini, ta'limni nazorat qilib, uni boshqarishga mas'ul hisoblangan.

Buxorodagi barcha fuqaro sudi (mahkamasi) shariat bo'yicha boshqarilgan va bu boshqaruv „qozi“ deb ataluvchi shaxslar qo'lida bo'lgan. Bosh qozi, ya'ni qozi kalon poytaxt bosh qozisi va ayni paytda amirlikdagi boshqa barcha qozilar boshlig'i xisoblangan.

Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masala bo'yicha shug'ullanuvchi maxsus amaldor, ya'ni *qozi askar* ko'rib chiqqan. Ushbu turdagi jinoyatlarga fatvo tayyorlash *muftiy askar* zimmasida bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik jinoyat ishlari alohida-alohida mahkamalar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Buxoro amirligi boshqaruv tizimida o'ziga xos o'rinni „rais“ egallagan. Ushbu amal yarim diniy, yarim tartibotchi usulida edi. Buxoro amirligida *bosh rais* odatda *eshon rais* yoki *rais ush-shariat* deb atalgan. Bosh raisga barcha mahalliy raislar bo'ysungan. Bosh rais ularni amir oldida tekshiruvdan o'tkazib turgan.²⁵

Amir Muzaffar (1860—1885 y.y.) mang'itlar sulolasida taxtga o'tirgan oltinchi amir hisoblanadi. Ushbu davrga kelib mang'itlar) hukmronligi asosida davlat boshqaruvi siyosiy tuzumining o'ziga xos bo'lgan tizimi yuzaga kelib bo'lgan edi.

Davlat rahbari — Amir Muzaffar cheksiz hokimiyat egasi hisoblangan. Amirlikda ijro hokimiyati amirlik tomonidan tayinlangan qo'yidagi lavozimlardagi amaldorlar tomonidan amalga oshirilgan.

Amirning birinchi vaziri, ya'ni *qo'shbegiyi bolo* eng katta lavozim bo'lib, amir oshxonasi boshlig'i—bovurchiboshi devonbegi, xazinachi, miroxo'rboshi, shogirpesha, amir oshxonasining nazoratchisi, bakovulboshi, mahramboshi, saroydagi ozodaliq osoyishtalik va tartibga javobgar farroshboshi, zakotchi mirzaboshi bevosita uning tasarrufida va nazorati ostida bo'lgan.

Bosh vazir ularning ishini borishini nazorat qilish va tashkil etish bilan shug'ullangan. Amirning ikkinchi vaziri — *qo'shbegiyi-poyon* ba'zan mir-poyon deb atalgan bo'lib unga yasovulboshi, miroxurboshi, xazinachi, mirzalar, bakovulboshi, zakotchi buyso'ngan. Undan keyingi yirik amal — bu *tupchiboshiyi askar* hisoblanib, u amirlikning harbiy qumondoni hisoblangan. Unga yasovul boshi, mirza, mahramboshi, bakovulboshi, devonbegi, o'n ikkita sarkarda, sarkardalarga bo'ysunuvchi sarbozboshilar bo'ysungan.²⁶

Davlat tizimidagi keyingi amaldor bu artilleriya boshlig'i *to'pchiboshiyi askar* hisoblangan. Uning qo'l ostida shogirdpesha, mirza va merganlar bo'lgan. Keyingi amaldor amirlikda bosh qozi — *qozi kalon* hisoblangan. Qozi kalon devoniga devonbegi, olamiyon, tergovchi, mahramboshi, miroxurboshi, tarakachi, muharrir, mulozimlar, mirzalar, shotirlar, tilmoch va dahboshi (o'nboshi) kirgan.

Qozi kalondan keyin turadigan amaldor *raisi kalon* hisoblangan. U *eshon rais* deb ham yuritilgan. Uning apparatiga vaqtincha o'rinbosarlik kiluvchi xalifa, noib, durra-dast, mulozimlar, mirzalar, miroxurboshi, devonbegi, tarakachi, tergovchi, shahar mirobi kirgan.

Shuningdeq ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi lavozimlar qatoriga shahar xavfsizligiga javobgar bo'lgan *mirshab* va uning qo'l ostidagilar, suv ta'minotiga javobgar shaxs bo'lgan mirob va uning qo'l ostida ishlaydiganlar kirgan.

Mirshab qo'l ostida yasovulboshi, devonbegi, mahramboshi, mirzalar, dahboshi, tungi qorovul hisoblangan shabgardlar, farroshboshi va miroxurboshi faoliyat kursatgan.

²⁵ Холикова Р. Россия-Бухоро: тарих чоррахасида. Т.; "О'qituvchi" НМИУ. 2005. 66-67- бетлар.

²⁶ Ўша манба. 67-бет.

Mirob tasarrufida esa mahram, mirzalar, bakovullar, miroxurlar, suv tarmoqlari nazoratchilari, arboblar, mahalla, mavze va qishloq oqsoqollari bo'lishgan.

Amir Muzaffar xuzurida yuqorida keltirilgan yuqori mansabdorlar bilan birga qo'yidagi amaldorlar ham xizmat qilishgan. Amir farmonlarini yetkazuvchi *parvonachi*, amirga doimo hamroh bo'lib yuruvchi *hidoyachi*, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni kutib oluvchi *shig'ovul*, amir osoyishta-ligi va tinchligini muhofaza qiluvchi *tongotar*, amirga qaratilgan barcha salom va ta'zimlarni qabul qiluvchi va javob beruvchi *salom og'asi*, amir dasturxoniga javobgar *dasturxonchi*, amir safari chog'ida namozga chorlovchi - imomi jilov, amir safari chog'ida qonun bilan shugullanuvchi - *mufti jilod*, amir maslahatchilari *guruhi-jam'g'a* shular jumlasidandir. Amirga bo'lgan sadoqati va xizmati uchun alohida diqqatga sazovor bo'lganlar *dodxoh*, *inoq*, *to'qsabo*, *otaliq*, *eshik og'asi* kabi unvonlarga ega bo'lishgan.²⁷

Amir Muzaffar davrida joylarda barcha *huquqiy* normalar qozilar tomonidan hal etilgan. Barcha fuqarolik ishlari va jinoiy ishlar Kur'on asosida ko'rib chiqilgan. Amirlikda qozilar bevosita amir xohish-irodasini bajaruvchi qozikalon tomonidan tayinlangan.

Buxoro amirligida qo'shin tuzilmasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. SHu narsani aytish joizki, Buxoro amirligida amir Nasrullohga (1828—1860 y.y.) qadar doimiy (muntazam) qo'shin bo'lmagan.

Amir Muzaffar davrida amir qo'shinlariga *amirilashkar*, ya'ni askarboshi rahbarlik qilgan. Qo'shinda *mufti askar* mansabi mavjud bo'lgan. XIX asming 60 yillarida amir qo'shinlarining amiri-lashkari Usmonbek degan shaxs bo'lgan. U rus armiyasidan qochib kelgan kazaklardan bo'lgan. Buxoro qo'shinlarining asosini „otliq"lar tashkil etgan. Piyodalar ozchilikni tashkil etgan. Amir qo'shinining eng yaxshi qismi bu yollangan afg'onlar bo'lgan.

Amir Muzaffar davrida ham amirlik beklklarga bo'lingan bo'lib, beklar amir tomonidan tayinlangan. Bekliklarning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi rahbarligida yasovullar bo'lgan. Beklik hududidagi qo'shinlarga beklar o'zi rahbarlik

²⁷ Ўша манба.68-69- бетлар.

qilishgan. Beklarning qo'shini bir necha yuz kishidan iborat otliqlardan iborat bo'lib, ular har oyi bek xisobidan 20 tangadan maosh olishgan.

Bek qo'shinida *yuzaboshi*, *ellikboshi*, *o'nboshi* unvoniga taqlid qilingan holdagi bo'linish mavjud bo'lgan. Bek qo'shinida miroxur lavozimi bo'lib, u butun bek qo'shiniga rahbarlik qilish xuquqiga ega bo'lgan.

Bekliklar o'z navbatida, qo'yi ma'muriy boshqaruv tizimlariga bo'lingan bo'lib, ularni oqsoqollar boshqarishgan, qishloq joylarda esa amin lavozimi joriy etilgan bo'lib, ular beklilikning suv xujaligini boshqargan.

Buxoro amirligi tarixi, davlat tuzumi to'g'risida tadqiqot olib borishgan ko'p olimlar diniy unvonlar to'g'risida to'xtalishganda ba'zan muftiy, qozi va boshqalarni ham ko'rsatib o'tishgan. Aslida bu noto'g'ri. Boshqacha qilib aytganda, ular unvon bilan amalni chalkashtirib yuborishgan.

Davlatni boshqarish, uni rivojlantirish xalqning farovonligini ta'minlash, ularning osoyishta hayotini ta'minlab berish ko'p jihatdan shu davlat tizimiga, unga rahbarlik qilgan tarixiy shaxsga, davlat boshqaruvining to'g'ri tashkil etilganligi va ushbu tizimning kimlar tomonidan va qanday usulda boshqaruviga bevosita bog'liq bo'lgan.

II. BOB. BUXORO AMIRLIGINING IQTISODIY AHVOLI VA SAVDO ALOQALARI.

2.1. AMIRLIKDAGI IQTISODIY AHVOL VA MULKIY MUNOSABATLAR.

Amirlikdagi iqtisodiy ahvol va mulkiy munosabatlar o'rganilganda shunga amin bo'ldikki, iqtisodiy hayotda Buxoro amirligi axolisining katta qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Yerning ko'p qismi davlatning qo'l ostida bo'lib, u «amloki podshohi» yoki «mulki sultoni» deb atalgan. Yerning 2-qismi odamlarning xususiy mulki hisoblanib, uning talay qismi boylarning qo'l ostida edi. Bunday yerlar «mulk yerlari» deb yurgizilgan.

Erning 3-qismi masjid, madrasa va mozorlarni moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida vaqf nomi bilan berilgan. Davlat yerlarining ma'lum qismi amirlar tomonidan xizmat ko'rsatgan nufuzli kishilarga umr bo'yi foydalanish uchun in'om qilingan. Bu xildagi yerlar «suyurg'ol» yoki «tanho» nomi bilan atalgan. (Qarang ilova № 2). Dehqonlar paxtachilik, ipakchilik, kanopchilik, polizchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Minglab kishilarni qamrab olgan hunarmandchilik keng qo'lamda rivojlangan. Uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarning muhim buyumlari sifatida juda qadrlangan. Buxoro, Samarqand. Xujand va Toshkent yirik xunarmandchilik markazlari sifatida shuhrat qozongan. D.N.Logofetning ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro amirligining „Qashkadaryo vohasi, Surxondaryo vohasi, Yakka-bog', Kitob, Chiroqchi, Qarshi, Shahrisabz, G'uzor, Termiz tumanlarida paxta katta miqdorda yetishtirilgan”.²⁸

Ayniqsa, Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida aloqaning uzaro yaxshilanishi tufayli, XVI asrdan boshlab XIX asr ikkinchi yarmiga kadar Buxoro amirligida paxta yetishtirishga katta e'tibor berila boshlandi. Xalkaro may-donda va jaxrn bozorida paxta narxining ancha oshishi aynan paxta yetishtirishning ko'payishiga sabab bo'lgan edi.

A. Kostenkoning ma'lumotlariga qaraganda, O'rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro paxtasi alohida diqqatga sazovor bo'lib, u ancha qimmat turgan. P. I. Demezoning yozishicha, Buxoroda sholi yetishtirishga katta e'tibor berishgan. Eng yaxshi guruch Miyonqol hududlarida va Samarkand atroflarida yetishtirilgan. Buxoro shaxrining o'ziga, odatda, Shaxrisabz va Xisordan ko'plab guruch olib kelingan. Buxoroda bug'doy (gandum), juxori, oq jo'xori, makkajo'xori, kunjut, arpa (javdar(i)), tariq, mosh, nuxat, loviya kabi poliz ekinlari ko'plab yetishtirilgan.

Qishda (1834 yili) Buxoroda bug'doyning bir botmoni 12—14 tanga miqdorida, kunjutning bir botmoni 18—19 tanga, arpa (javdar(i))ning bir botmoni 10,5 tanga, no'xatning bir botmoni 20 tanga miqdorida sotilgan.²⁹

Qarshi va Miyonkol hududlarida juda ko'p tamaki yetishtirilgan. Qarshi tamakisi eng yaxshi sifatli tamaki hisoblangan. Shuningdeq Buxoroda juda katta miqdorda uzum yetishtirilardi. Uzunning *husayni, sohibi, toifi, ishburxoni, siyohi, kishmish* navlari ko'p. Mayiz qilishga e'tibor juda katta bo'lgan, soyada quritilgan kishmish—*soyaki* deyilgan. Oftobda kuritilgani esa *oftobi* deyilgan. Bundan tashqari Buxoroda bog' yaratishga katta e'tibor berilgan. *O'rik, bodom, gilos, olcha, yovvoyi gilos, tog' olchasi, pista, shaftoli, nok olxuri, olma, yong'oq, behi, anor* hamda *tutlarning* katta-katta bog'lari mavjud bo'lib, ulardan ko'plab hosil olingan.

Buxoroda ipakchilik rivojlanishiga katta e'tibor qaratilganligi tufayli ipak savdosi ancha katta ahamiyatga molik bo'lgan. Ipakchilik rivojlanishining asosiy manbai bu — tut daraxtlarining yetarli miqdorda bo'lishidir. Tut daraxti O'rta Osiyoda keng tarqalgan daraxt turlaridan xisoblanadi. Ayniqsa, Buxoro voxasi, Zarafshon vodiysi, Karmana, Miyonkolda, umuman suv ko'p bo'lgan barcha hududlarda tut daraxtlari nihoyatda ko'p o'stirilgan. P.I.Demezoning ma'lumotlariga qaraganda, „Buxoro atrofi va Karmanada yetishtirilgan ipak eng yaxshi xisoblangan”.³⁰

Buxoroda ipak xom ashyosi, ya'ni pillasining bir pudi 13—14 tilla, ipakdan yigirilgan ipning bir pudi esa 30—32 tilla turgan. Toza ipak va yarim ipakdan turli

²⁸ Холикова Р. Россия-Бухоро: тарих чораҳасида. Т.: "O'qituvchi". 2005. 86-бет.

²⁹ Ўша манба. 86-бет.

xil matolar tayyorlangan. Jumladan atlas, beqasam, adras va hokazolar. Buxoroda ko'k, yashil, sariq va eng ko'p miqdorda qizil rangli matolar tayyorlashga e'tibor juda katta bo'lgan.³¹

P. I. Demezoning ma'lumotlarida Buxorodagi paxtachilik masalasiga tuxtalib, shunday fikrlar bildirilgan. „Paxta Buxoro atroflarida, Miyonkolda, Karmanada va Samarkandda muvaffaqiyatli yetishtiriladi va u ancha yaxshi sifatli hisoblanadi. Qarshi va Chorjuy paxtalari sifat jixatdan past hisoblanadi“.³²

Buxoro amirligi hududida cho'l va dashtlarning ko'pligi hamda uning tog'oldi tumanlari chorvachilikning rivojlanishiga qulay sharoit va imkoniyat yaratgan. Mana shuning uchun ham cho'l zonalarida, ayniksa, Buxoro va Qarshi hududlarida qo'ychilik yaxshi rivojlangan. Shuningdeq amirlikda yilqichilikka ham katta e'tibor karatilgan. Chorvachilik rivoji asosida sifatli teri va shu kabi mahsulotlar tayyorlanib, ulardan gilamlar, sholchalar, namatlar, turli xil arqonlar tayyorlangan va bozorlarga olib chiqilgan.

Buxoro amirligida ichki va tashqi savdo yo'lga qo'yilgan bo'lib, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatilgan. Xonlikning Rossiya bilan elchilik va savdo aloqalari o'sgan edi. U amirlik uchun tayyor mahsulotlar bozori sifatida katta ahamiyat kasb etgan.

Albatta, Rossiya imperiyasiga tobe' bo'lib qolgan Amir Mo'zaffarning maqomi “Zirabulok shartnomasi”ning 12 moddasiga binoan faqat jug'rofiy chegaralash jihatidan qisqartirilib qo'yilmasdan (ya'ni, biror tashqi xorijiy davlat bilan na davlatlararo, na tashqi savdo munosabatlarini mustaqil davlat sifatida olib borolmaslik, Rossiyaning bu yo'nalishlardagi ma'muriyat tizimi orqali juda oz miqdorda va cheklangan masalalardagina faoliyati ko'rsatishi), balki Buxoro amirligining an'anaviy Balx, Xirof mintakasi qo'ldan chiqib. Kattaqo'rg'on, Jizzax, O'ratepa. Samarqand mintaqalarining Rossiyaga qo'shib olinganligi, suv ta'minotining keskin yomonlashuvi, qolaversa 1885 yil faoliyat boshlagan “Rossiya imperatorligi siyosiy agentligi” tomonidan o'lkani siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy-

³⁰ Ўша манба. 87-бет

³¹ Ўша манба. 87-бет

konfessional, ma'naviy hayotiga oid birlamchi, asosiy va bevosita axborotni yig'ishi, tahlil etishi, xulosaga kelishi, hatto siyosiy-xuquqiy, diniy-konfessional ishlarda tavsiyalar berish huquqiga ega ekanligi tufayli yuzaga kelgan axborot zo'ravonligi, ushbu tashkilotning siyosiy-mafkuraviy, ma'naviy bosimi, aksincha unga barcha imkoniyatlarni favqulodda yuqori darajada yaratib berilishi, har bir talabi, ko'rsatmasiga so'zsiz tobe'lik ko'rsatish majburiyati Buxoro amirining huquqlarini cheklab qo'yishga olib kelgan edi.

Ammo, Rossiyaning Buxoro amirligiga qilgan siyosiy tajovo'zlaridan esankiramay amirlik protektorat maqomida bo'lsada o'z hududida ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yo'lga qo'yishga erisha oldi. 1865-1876 yilgi qirg'inbarot istilochilik yurishlari va tobe'lik shartnomalaridan so'ng Rossiya imperiyasi Turkiston general-gubernatorligida nisbatan barqaror hokimiyat o'rnatgan, ma'muriyat idora va boshqaruv usullarini barqarorlashtirgan davrida o'lkada asta sekinlik bilan yangi iqtisodiy jonlanishlar yuz bera boshladi. Bunda shubhasiz katta kapital, xo'jalik, sanoat sohalaridagi yangiliklar, zamonaviy aloqa vositalari, temir yo'llarning qurilishi, moliya-bank tizimi va xalqaro qulay vaziyatni yuzaga kelishi o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Buxoroda dastlabki millionerlar, savdo tijoratchilari, zavodchi, fabrikachi boylar va bankirlar paydo bo'la boshladi. Bu haqda Muhammad Baljuvoni o'zining "Tarixi Nofe'iy" asarida qo'yidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi. "Bu muqaddimadan mashhur bo'lgan (buxorolik)lar haqida yozaman. Eng avvalo, nomdor tojirlardan bo'lgan Amir Axadxon bilan birgalikda "sherik tijorat" bo'lganlar: Mirzo Muhiddin sarrof, Fayzulloxo'ja Ubaydulloxo'ja o'g'li, Muxdmmadolim Juraboy Po'st o'g'illarini aytish mumkin. Bu uchchalalari Buxoroning eng ilg'or tojirlari edilar". Amir Sayyid Olimxon o'zining "Buxoro xalqining xasrati tarixi" nomli asarida: "Bolsheviklar inqilobidan oldin Buxoro savdosi faqat Russiyaning o'zi bilan ikki yuz ellik million frankka yetar edi"³³ - deb yozgan edi.

Buxoro amirlari iqtisodiy hayot, savdo-sotiqning rivojlanishi hisobiga katta shaxsiy boylik, mol-mulk, ko'chmas mulkka va kapitalga ega bo'lib borardilar.

³² Ўша манба. 87-бет

³³ Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи.Т.: "Фан". 1991.27-бет.

Ularning alohida nufuzli maqomi Buxoro-Rossiya siyosiy-iqtisodiy munosabatlarida, tovar ayirboshlash va kapitalning ichki aylanishda katta imkoniyatlarni ochib berar edi. Buxoro amirlari Rossiya ma'muriy tizimida xatto ulug' knyazlardan ham yuqori martabali maqomga ega bo'lishib, "A'lo xazratlari" deb emas, boshiga toj kiydirilgan taxt sohiblari sifatida "Janobi Oliylari Onxazratlari" unvoni bilan nomlanishgan. "Ularning rus moliyaviy doiralaridagi o'rni va ahamiyati yirik kapitalistlar sifatida juda katta edi. Zero, amirning Rossiya davlat bankidagi oltin bilan xisoblanadigan kapitali 27 mln. rublni, 7 mln.ga yaqin xususiy banklardagi kapitali saqlanar edi. Qorako'l savdosi bo'yicha amir dunyo bozorida o'z kapitali aylanmasi bo'yicha uchinchi o'rinda turar edi"

Buni o'sha paytdagi Buxoro amirligi iqtisodiy xayotidagi o'rni va ahamiyatini iqtisodiy ko'rsatgichlarda keltirilsa masala oydinlashadi deb uylaymiz. Ya'ni, 1913 yilga kelib Buxoro amiri kapitali xar yilgi xolati quyidagicha edi: "Buxorodan 1.500 000 dona qorako'l - 15.000 000 rubl olib chiqilar edi. Bu esa Buxoro amirligi olib borgan umumiy savdo eksportining 42% ni tashkil etar edi. Keyinchalik qorako'l ni xorijga savdoga chikarish muttasil o'sib bordi va katta ko'lamga ega bo'ldi". Akademik A.R. Muhammadjonov o'zining "Quyi zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi" nomli monografiyasida Buxoroda qishloq xo'jaligi sohasining asosiy tarmoqlarini maxsus tadqiq etib, unda suvdan foydalanishning yaxshilanishi oqibatida iqtisodiy taraqqiyotning jonlanishi, suvni yetkazib berish, ayirish, tashlab berish, taqsimlash tizimining umumiy qiyosiy ko'rsatgichlari keltirib o'tilgan - 1860 yillar o'rtasida qadimdan saqlanib, hali hamon foydalanib kelinayotgan kanallar, tug'onlar, suv ayirg'ichlar, koriz, sardoba va boshqa suv inshootlarini hisobga olmaganda, Ahmad Donish ta'kidlaganidek, Amir Mo'zaffarning Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufmanga Amudaryodan suv chiqarib, Buxoro yerlarini suv ta'minotini yaxshilash haqidagi taklifi inobatga olinmagan bo'lsada, A.R. Muhammadjonovni aniqlashiga kura 1888-yilga kelib, "Samarqand harbiy gubernatorining Rossiya xarbiy ministrligiga yuborgan hisoboti buyicha. Zarafshon vodiysida daryodan 142 ta magistral kanal bosh olib, shundan 99 tasi Samarqand vohasini, 43 tasi Buxoro vohasini sug'orar edi. Vodiy bo'yicha

hammasi bo'lib, 1924 ta ikkinchi darajali kanaldan 985 tasi Samarqand qismida va 939 tasi Buxoro qismida joylashganining o'zi qishloq xo'jaligi va irrigatsiya sohasida biroz bo'lsada jonlanish bo'lganligini ko'rsatadi. Albatta o'lkadagi bir muncha rivojlanish, jonlanishning birinchi sababi Rossiya bosqini va istilosi bilan bog'lik bo'lsa, ikkinchi sababi sug'oriladigan unumdor yerlar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Janubiy O'zbekistonda xususiy mulkka aylana boshlanganligi bilan bog'liq edi.

2.2. AMIRLIKDA SAVDO-SOTIKNING RIVOJLANISHI SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING SHAKLLANISHI.

Ma'lumotlarda keltirilishicha. Rossiya kapitali Rossiya-Buxoro savdo-tijorat aloqalariga favqo'lodda juda katta ahamiyat berib, o'z maqsad va manfaatini ko'zlab homiylik qilgan. Bunda asosan qimmatbaho va valyuta keltiruvchi xom-ash'yoni katta miqdorda Buxorodan olib chiqib ketishni amalga oshirgan. Chunki bunday siyosat Rossiyaning o'z iqtisodini kutarishida jiddiy ahamiyatga ega edi.

Xunarmandchilik sohasida to'qimachilik uning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan. U asosan mahalliy xom ashyo manbalari — paxta, jun, ipakning yetarli miqdorda bo'lganligi uchun ham yaxshi rivojlangan.

XVIII—XIX asrlarda Buxoro amirligining Qashqadaryo vohasida xunarmandchilik yaxshi rivojlangan bo'lib, uning to'qimachilik kulolchilik duradgorlik kunchilik va temirchilik turlari voha va amirlikning xo'jalik hayotida salmoqli o'rin egallagan. Vohaning Qarshi, SHaxrisabz, Kitob shaharlarida hunarmandchilik yaxshi rivojlangan.

To'qimachilik voha xunarmandchiligida yetakchi tarmoq hisoblangan. Ayniqsa, bo'z, chit, olacha ko'p miqdorda tayyorlangan.

Qarshi va Shaxrisabzda ipak matolar tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan.

Voha xunarmandchiligida kulolchilikning mavqei ancha yuqori bo'lgan.

Qarshi shaxri Buxoro amirligidagi mis va kumush buyumlar ishlab chiqaruvchi yirik markazlardan biri bo'lgan. Voxaning Qarshi va Shaxrisabz shaxarlaridagi

zargarlar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, metall va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar O'rta Osiyo hududida katta qadr-qiyamatga ega bo'lgan.

Ko'nychilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. Charmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po'stin va nimpo'stin, turli xil meshlar tayyorlangan.

Vohada yogoch o'ymakorligi yaxshi rivojlangan bo'lib, turli xil binolar qurilishida undan unumli foydalanilgan.

XIX asrda amirlikning Buxoro, Samarkand, G'ijduvon, Denov va boshqa ko'plab hududlarida kulolchilik ancha yaxshi rivojlangan va sifati yaxshi mahsulotlar tayyorlangan.

Hunarmandchilik turlari ichida zargarlik xam ancha kuchli rivojlangan. Buxoro amirligida metallga ishlov berish ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. 1841 yili Buxoroga kelgan Q. F. Butenev bu yerda 6 ta cho'yan quyish qozonlari bo'lganini yozadi. O'lkada qurilgan dastlabki metall quyish qozonlarida to'plar uchun o'qlar, harbiy va dehqonchilik qurollari yasalgan. Mis noyob va qimmat bo'lganligi uchun Buxoro amirligida to'p yasashda mis o'rniga ko'proq cho'yandan foydalanilgan. Bu ishda mohir Shaxrisabz ustalari amirlikda eng yirik to'p stvolini quyishgan, uni o'rnatish uchun maxsus o'n ikki g'ildirakli qurilma yasalgan. Biroq Q. Butenev Buxoro amirligida metall ishlab chikarish sanoatiga deyarli e'tibor berilmaganligini yozadi: „Buxoroda hatto xunarmandchilik ham mukammallikning quyi bosqichida turadi, zavodchilik ishi yo'q, agar hukumat bundan keyin ham xozirdagidek harakat qilsa o'zgarish bo'lishi qiyin. Nihoyatda johil bo'lgan xukumatning zavodlar qurishi xaqida so'z bo'lishi ham mumkin emas, chunki u bunday zavodlar haqiqiy foyda keltirishini ko'rmaydi. Bundan tashqari, zavodlar qurish uchun mablag' xam, bilimdon kishilar ham yetishmasdi”.³⁴

Bundan ko'rinib turibdiki, Buxoro amirligida XIX asrning 40-yillarida ham sanoat tarmoqlarining shakllanishi, uning ko'rinishlari deyarli ko'zga tashlanmagan.

XIX asrning o'rtalariga qadar Buxoro amirligi konlaridan qazib olingan qazilmalardan mis va qo'rg'oshinlar nihoyatda sodda qurilgan o'choklarda ajratib

olingan. Mis buyumlar, qo'rg'oshindan o'qlar tayyorlashda haddan tashqari ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'yilgan.

Buxoro amirligi va uning aholisi savdo-sotiq ishlariga katta e'tibor qaratgan. O'z qo'shnilari bo'lgan Xiva xonligi, Qo'qon xonligi hamda Afg'oniston bilan hamda o'ziga yaqin bo'lgan davlatlar Eron, Qashqar, Hindiston bilan va yirik shaharlar hisoblangan Hirot, Mashhad va Kashmir bilan juda katta va doimiy savdo ishlarini olib borishgan.

Buxoro amirligida hunarmandchilikning rivojlanishi bevosita savdo munosabatlarini kengayishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, bu ichki savdo rivojlanishiga keng yo'l ochdi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro hududining juda ko'p shaharlarida karvonsaroylar qurilishiga katta e'tibor berildi. Aynan mana shu davrda Buxoroning qushni davlatlari va Rossiya, Eron, Hindiston davlatlari bilan savdo aloqalari tez sur'atlar bilan rivojlanib borgan. Ichki bozorda Buxoro, Samarkand, Qarshi, G'uzor shaharlari amirlikning yirik savdo markazlari xisoblangan. Ushbu shahar bozorlarida pulning qiymati va mahsulotlar tannarxi belgilangan. Masalan, G'uzor chorva mollari sotish va sotib olishda eng katta bozorlarga ega bo'lgan. Boshqa shaharlar va aholi yashaydigan manzilgohlarda haftaning ma'lum kunlarida bozor bo'lgan. Ichki bozorlarda avvalo kundalik ehtiyoj mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, xunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar, paxta matolari, jun va ipak matolariga talab katta bo'lgan.

Buxoro bozori nafaqat shaxarliklar, balki uning atrofidagi qishloqlar aholisining talablarini qondirishda ham, aloxida ahamiyatga ega bo'lgan eng yirik savdo markazlaridan hisoblangan. Buxoro bozorida ko'chmanchi chorvadorlar o'z mahsulotlarini Buxoro hunarmandlari mahsulotlariga ayirboshlashgan. Buxoro bozorida parcha, duxoba, har xil chitlar, ipak matolar, temir, tilla, kumush, mis, cho'yan idishlar, qog'oz, igna, turli xil iplar yaxshi savdo qilingan. Buxoroda yanvar oyidan may oyigacha savdo yaxshi bo'lgan. Bu davrda savdo yarmarkalari tashkil qilingan. Bu savdo yarmarkalariga Eron, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Rossiya va amirlikning barcha viloyatlaridan savdogarlar tashrif buyurishgan. Bu savdo mavsumida nihoyatda ko'p mahsulotlar ortgan savdo karvonlari Buxoroga kelishgan.

³⁴ Холикова Р.Россия-Бухоро: тарих чорахасида. Т.: "O'qituvci". 2005. 94-бет.

Savdo karvonlari ular uchun mo'ljallangan maxsus karvonsaroylarda to'xtashgan. XIX asrning boshida Buxoroda chet ellik savdogarlar uchun mo'ljallangan 10 ta karvonsaroy bo'lgan. XIX asrning 40-yillariga kelib esa 24 ta toshdan qurilgan va 14 yog'ochdan yasalgan, jami 38 ta karvon saroy mavjud bo'lgan. Buxoro shaxrining bosh bozori Registonning markaziy maydonida joylashgan bo'lgan.³⁵

Buxoro savdogarlari qo'shni davlatlar va xalqlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor berganlar. Ko'chmanchi qozoqlar Buxoro amirligiga cho'l mahsulotlari, ya'ni palaslar, namatlar va o'troq aholi uchun kerakli bo'lgan muhim xom ashyo — jun va terini ko'plab keltirishgan.

Buxoro dehqonlari va xunarmandlari esa, o'z navbatida, qozoq dashtlariga non, oziq-ovqat mahsulotlari, sabzovotlar, kiyim-kechaklar paxta matolari yetkazib berishgan.

Buxoroda turkman gilamlari nihoyatda katta talabga ega bo'lgan. O'z navbatida turkmanlar Buxorodan kiyim-kechak uchun kerak bo'lgan bo'z va boshqa matolarni olib ketishgan.

Buxoro savdogarlari Balx va Badaxshonda ham katta savdo ishlarini olib borishgan. Bu yerda buxoroliklar qozon, buxoro matolari, Rossiyadan keltirilgan igna, oyna, qaychi va shu kabi boshqa maxsulotlarni olib kelishgan. U yerdan Buxoroga kumush, oltinlar olib qaytishgan.

Buxoro savdo karvonlari Qobul va Hindistonga ham borib savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishgan. Hindistondan buxorolik savdogarlar qimmatbaho toshlar, dori-darmonlar va Kashmir matolarini sotib olishgan. Hindistonlik savdogarlar ham, o'z navbatida, Buxoroga tashrif buyurishgan va ko'plab xind matolarini olib kelishgan.

Buxoro savdogarlari Xitoy, Sharqiy Turkiston bilan ham savdo aloqalarini olib borishgan. Xitoy bilan savdo aloqalarini Qo'qon xonligi orqali olib borishgan. Xitoyga paxta, qorakul teri, Buxoro xunarmandlarining turli xil mahsulotlari olib borilgan. Xitoydan esa, eng avvalo, ko'p miqdorda ipak matolar va chinni buyumlar olib kelingan.

³⁵ Ўша манба. 90-бет

Buxoro o'zining savdo aloqalarini olib borishda Rossiya bilan bo'lgan savdo munosabatlarini rivojlantirishga katta e'tibor bergan.

Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari Orenburg orkali olib borilgan. Orenburgda juda katta savdo markazi qurilgan bo'lib, u yerda doimiy ravishda yarmarka tashkil kilib turilgan.

XVIII asrning 80—90- yillarida Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari ancha tez rivojlandi. Bu davrda Buxorodan Rossiyaga ipak matolar, ipak xom ashyosi, teri xom ashyosi, teri kiyimlar, paxta, ip, qorako'l kabi maxsulotlar va oltin hamda kumush olib borilgan. Rossiyadan esa mix, oyna, igna, qand, shakar olib kelishgan. Ayrim hollarda xonning iltimosiga binoan ma'lum miqdorda temir olib kelingan. Chunki 1800 yilga kadar Rossiyadan Buxoroga temir sotish man qilib qo'yilgan edi. 1801 yildan boshlab esa temir, chuyan, mis sotishga ro'xsat berildi. XIX asrning birinchi yarmida Buxoroga ko'plab temir, mis, chuyan, hatto oltin va kumush ham olib kelina boshlandi.³⁶

Bu esa Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalarini yanada rivojlantirishga katta imkon berdi. Ayniqsa, Markaziy Rossiya hududlari hamda Sibir bilan savdo aloqalari juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ushbu yunalishda Buxoro savdogarlari qizg'in savdoni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'lishgan. Jumladan, Buxorodan ushbu hududlarga paxta, ipak turli xil bo'yoqlar, quritilgan mevalar va hatto ayrim tayyor maxsulotlarni ham olib borib sotishgan. Chor Rossiyasi bosqiniga qadar paxta va paxtadan ishlangan tovarlar Buxoro savdosining asosini tashkil etgan. Masalan, 1801 yili Buxoro savdogarlari tomonidan Rossiyaga olib borilgan savdo molla-rining 75% ini paxta va undan ishlangan mollar tashkil etgan. Buxoro savdogarlari 1801 yili Rossiyaning Orenburg shaxriga 718,9 ming rubl qiymatidagi tovarni olib kelishgan bo'lsa, Orenburgdan Buxoroga 504,7 ming rubl qiymatidagi tovar olib ketishgan. 1811 yilda esa ushbu ko'rsatkich Buxorodan Orenburgga olib kelingan mollar qiymati 3.224 ming rublni, Orenburgdan Buxoroga olib ketilgan mollar qiymati esa 1.792

³⁶ Ўша манба. 91-бет

ming.rublni tashkil etgan. O'z navbatida esa Rossiya hududlaridan Buxoroga, asosan, zavod-fabrikalarda ishlab chiqilgan tayyor maxsulotlar olib kelingan.³⁷

Ushbu ko'rsatkichlar to'chor Rossiyasi bosqiniga qadar o'sib borganligi Rossiya bilan Buxoro o'rtasida savdo aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi.

Buxoro amirligi iqtisodiy hayotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etgan. Jumladan, amirlikda dehqonchilik chorvachilik va tomorqa ishlovi qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishlari hisoblangan.

Buxoro amirligida dehqonchilik texnikasi oddiy va an'anaviy holatda bo'lgan. Yerga asosan, omoch,³⁸ mola,³⁹ ketmon va bel bilan ishlov berilgan.

Buxoro amirligida dehqonlar bug'doy, arpa, suli, guruch, makkajo'xori, oq jo'xori, mosh, loviya, kunjut yetishtirishga katta e'tibor berishgan. Poliz ekinlaridan ayniqsa, qovun-tarvuz, qovoq ekishda katta tajribaga ega bo'lishgan. Qovun-tarvuzning nihoyatda ko'p turlari yetishtirilgan.

Buxoro amirligining agrar munosabatlari tarixida eng muxim muammolardan biri — bu yerga egalik masalasi hisoblangan.

XIX asrda Buxoro amirligida mavjud bo'lgan yer egaligining uch kategoriyasi mavjud bo'lib ulardan davlat yerlarini kengaytirishda ko'proq foydalanilgan. Bu haqda yuqorida so'z yuritgan edik.

Davlat yerlarining ko'payishining muhim manbalaridan biri, bu yirik zamindorlar tomonidan o'ziga talluqli xisoblangan yerning uchdan ikki (2/3) qismini davlatga o'tkazib, uchdan bir kismini (3/1) o'zida qoldirib va buning evaziga o'zida qolgan kismdan davlat tomonidan olinadigan barcha soliq turlaridan to'la ozod qilinishiga erishish bo'lgan. Amlok yerlardan olinadigan soliqlar miqdori tug'risida turli xil fikrlar mavjud. Jumladan, L. I. Sobolev va M. N. Rostislavovlar amlok yerlardan doimiy mavjud bo'lgan yer solig'i — xiroj olingan degan fikmi bildirishgan bulsa, A. A. Semenov esa amlok yerlardan olinadigan soliqlar nihoyatda yuqori bo'lganligini va u hosilning 40—50 foizini tashkil etganligini qayd etgan. Buxoro amirligida mavjud

³⁷ Ўша манба. 91-92-бетлар.

³⁸ Омоч-барча Ўрта Осиё хонликларида бўлгани каби, Бухоро амилигида ҳам ерга ишлов бериш учун асосий иш қуроли бўлган.

³⁹ Мола-ерни омоч билан ҳайдагандан сўнг, унинг катта кесакларини майдалаш ва экин экишга ерни текислаш учун ишлатиладиган ёғочдан ясалган иш қуроли ҳисобланган.

bo'lgan yer egaligining ikkinchi turi mulk yerlari, bu eng avvalo qo'zg'almas mulk hisoblanib, u erkin meros qilib qoldirilishi mumkin bo'lgan.

Mulk tug'risidagi masala doimo murakkab hisoblangan va olimlar olib borgan o'z tadqiqotlari, ilmiy ishlarida ushbu masala to'g'risida turli xil fikrlarni bildirishgan. Masalan, A. A. Semyonov mulk yerlari uch toifadan iborat deb, uning *mulki xurri xolis*, *mulki xiroji* va *mulki ushr* formalarini ko'rsatgan. M. N. Rostislavo esa mulk yerlarining ikki shakli borligini qayd qilib, ular mulki xurr yoxud *xurri xolis* va *mulki xirojdan* iborat deydi. O'z navbatida mulki xirojni u ushr va daxyaklarga bo'ladi. L. N. Sobolev esa Zarafshon voxasida „amluk, vaqf, mulki xiroji, mulki ushr va mulki xolis“ kabi yer kategoriyalari bor deb ko'rsatadi.⁴⁰

Mutaxassislar ilgari surgan fikrlar taxlili shundan dalolat beradiki, Buxoro amirligida yer solig'idan ozod hisoblangan mulki xurr yoki xurri xolisdan tashqari soliq tulashga taalluqli bo'lgan mulklar, ya'ni *mulki xiroj* va *mulki ushr* (daxyak) ham mavjud bo'lgan.

Mulki xurr yoxud mulki xolis ayrim olingan yirik yer egalariga taalluqli bo'lgan yer egaligi hisoblangan. U yer solig'idan ozod hisoblangan. Mulki xurr egasi doimo amaldagi amir tomonidan berilgan yorlikda ega bo'lishi shart bo'lgan va aynan shu yorliq tufayli u yer solig'idan ozod qilingan.

Mulki xiroj esa dehqon ahli foydalanayotgan yerlarga nisbatan ishlatilgan atama hisoblangan. Ushbu yer egaligiga ega bo'lgan yer egalari bemalol, erkin holatda o'z yerlarini sotish, uni meros qoldirish va sovg'a qilish huquqiga ega bo'lishgan. Ushbu yer egalaridan yer solig'i esa yerdan olingan hosilning uchdan bir ($1/3$) qismiga qadar olinishi belgilangan. Ammo amirlikning turli xududlarida olinadigan yer solig'i miqdori bir xil bo'lmagan (har bir hududda o'rnatilgan va belgilangan urfodat va tartibga ko'ra yer solig'i miqdori hosilning $1/3$ dan to $1/5$ kismiga qadar bo'lgan va u tarixda *taamuli qadim* deb yuritilgan).

Mulki ushr yerlari va daxyak yerlardan hosilning o'ndan biri ($10/1$) xisobida ulamo va ruhoniylar foydasiga soliq olingan. Daxyakdan olingan soliq,

⁴⁰ Холикова Р.Россия-Бухоро: тарих чораҳасида. Т.: "O'qituvchi". 2005.97-бет.

asosan, madrasa talabalari uchun nafaqaga, amir saroyida qur'on o'quvchini ta'minlash va boshqa xayriya tadbirlariga sarflangan.

Vaqf yerlari, asosan, ayrim diniy muassasalar— machitlar, mozorlar, xonaqoh madrasalarga yer uchastkalarini meros qoldirish va xayr-ehson qilish natijasida vujudga kelgan bo'lib, u yer egaligining alohida bir kategoriyasini tashkil etgan.

Ushbu yerlardan kelgan foyda mutavalli ixtiyoriga kelib tushgan. Mutavalli, asosan, vaqf egalari avlodlaridan tayinlangan. U vaqf xujjatlariga asoslangan holda foydani taqsimlab chiqishi lozim bo'lgan.

Rasmiy ravishda vaqf yerlarini sotish taqiqlangan, ammo manbalar va xujjatlarning guvohlik berishicha amirlik tarixida vaqf yerlar ham sotilgan, ham sotib olingan. Vaqf yerlardan davlat foydasiga soliqlar undirilgan.

Taxlillar shuni ko'rsatadiki, savdo-sotiq ishlari aylanmasidagi katta ulush Buxoro amirligi hissasiga to'g'ri kelgan. Bu davrda ham Buxorodan Rossiya, asosan paxta va undan tayyorlangan mollar olib borilgan. Amirlikning Buxoro, Samarkand, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, Denov kabi yirik shaharlari asosiy savdo markazlari hisoblangan. XIX asr ikkinchi yarmiga kelib Buxoro amirligida hokimiyatni markazlashtirish yanada kuchaydi.

2.3.BUXORO IQTISODIYOTIGA CHOR ROSSIYASI KAPITALINING KIRIB KELISHI OQIBATLARI.

XIX asr o'rtalaridan boshlab Buxoro amirligining ishlab chikarish munosabatlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu eng avvalo, O'rta Osiyo xonliklariga, jumladan, Buxoro amirligiga nisbatan Rossiya va Angliya davlatlarining o'ta qiziqishining kuchayishi tufayli sodir bo'ldi. Jumladan, XIX asr o'rtalaridan boshlab Angliya kapitalistlari Buxoroga nisbatan o'z ta'sir doiralarini kuchaytirishga va Buxoro bozoridan rus tovarlarini siqib chiqarish siyosatini ishlab chiqdi hamda uni amalga tadbiq eta boshladi. Pirovard natijada ushbu siyosat O'rta Osiyo masalalari bo'yicha Angliya-Rossiya o'rtasidagi raqobatni yuzaga keltirdi.

Shuni aloxida ta'kidlash joizki, XIX asr boshlarida boshlangan va uning 40—50- yillaridan boshlab jiddiy ravishda kuchaygan O'rta Osiyoga, jumladan, Buxoroga nisbatan Rossiya va Angliyaning qiziqishi, amirlik iqtisodiy hayotiga ularning kirib kelishi, o'z navbatida, Buxoro amirligida ishlab chiqarish munosabatlarining jadal sur'atlar bilan o'sishi va ishlab chiqarishning keskin rivojlanishiga olib keldi. Eng muhimi, maxalliy xunarmandlar, savdogarlar, umuman ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha tarmoq egalari ishlab chiqarishga nisbatan bo'lgan o'z munosabatlarini keskin ravishda tubdan o'zgartirdilar.

P. P. Ivanovning ta'kidlashicha, xalqaro maydonda, jumladan, Rossiya bozorlarida „O'rta Osiyo xom ashyosi va uning ba'zi bir mahsulotlariga talab kuchaya boshladi. Bundan rag'batlangan mahalliy ishlab “chiqarish tarmoqlari imkoniyatlari boricha o'z jamoalarida ishlab chiqarish munosabatlarini qayta qurishga harakat qildilar”⁴¹.

O'rta Osiyo xonliklarida, shu jumladan, Buxoro amirligida tovar ishlab chiqarishning jonlanishi va chet mamlakatlar bilan savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida o'lkada xalqaro kapitalizm, birinchi navbatda, ingliz kapitalizmining ta'siri tobora kuchli sezila boshladi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida ta'sir doirasi tobora kuchayib borgan Angliya vakillari rus tovarlarini bu hududlardan siqib chiqarish harakatiga tushdilar. Inglizlar ta'sirida bo'lgan O'rta Osiyo xukmdorlari esa, o'z navbatida, rus tovarlariga solinadigan bojni oshirib qo'ydilar.

XIX asr o'rtalariga kelib talabdan ortiqcha tovar ishlab chiqarilishi natijasida turkistonlik savdogarlar chet mamlakatlar bilan savdo aloqalarini kuchaytirdilar. Masalan, buxorolik savdogarlar Rossiyaga ko'proq paxta va ip-gazlama mahsulotlarini olib borib, u yoqdan temir va mis keltira boshladilar. Ushbu metallardan Buxoroda mehnat qurollari va ruzg'or buyumlari yasaldi, tangalar zarb qilindi. Xonliklar hududlarida qimmatbaho metallar, birinchi navbatda, oltin va kumush qazib olinsada, biroq u tobora oshib borayotgan talablarni qondira olmasdi.

⁴¹ Ўша манба. 93-бет

SHuning uchun ham qimmatbaho metallarning katta qismi Hindiston, Eron va Xitoydan keltirilgan.

XIX asr boshidan boshlab paxtachilikni rivojlantirishga e'tibor ancha kuchaytirilgan.

XIX asr o'rtalaridan boshlab Buxoro amirligi hududida aholining ko'payishi, shaharlarning kengayishi, amirlik iqtisodining tubdan o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan. Agar XVIII asr oxirlarida Buxoro amirligi hududida aholi soni 2 mln, XIX asr o'rtalariga kelib 2,5 mln kishini tashkil etgan bulsa, XX asr boshiga kelib uning yanada ko'payganligi to'g'risida Buxoro amiri Amir Sayyid Olimxon o'zining Millatlar Ligasiga yozgan „Buxoro xalqining xasrati tarixi“ nomli xatida „Buxoro aholisi uch yar im million nafardan iborat. Uning maydoni 225 000 m² keladi, ya'ni taxminan Italiya maydoni bilan teng“ deb ma'lumot berganini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik.⁴²

Buxoro amirligi aholisining ko'payishi, shaharlarning kengayishi, o'z navbatida, tovar-pul munosabatlarini ham rivojlantirdi. Aholining xunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talablarini oshib borishi va xom ashyo yetishtirish imkoniyatlariga qarab tumanlar turli sohalarga ixtisoslasha boshladilar. Masalan, Buxoro atroflarida ip-gazlama maxsulotlari, Samarkandda qog'oz, Toshkent va Kattaqo'rg'onda poyafzal ishlab chiqarish, Hisorda metallardan turli xil ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar yasash yaxshi yo'lga qo'yilgan edi.

XIX asrning 50—60 yillariga qadar amirlikdagi korxonalarning ishlab chiqarishi nihoyatda sodda usulda bo'lganligiga qaramay, ular Rossiyadan kirib kelayotgan tayyor sanoat mahsulotlariga nisbatan qisman bo'lsada qarshi tura olgan.

XIX asrning 50-70 yillarida Chor Rossiyasi podsholigi bilan Buxoro amirligi o'rtasida bir necha marta elchilar almashiuvlari bo'lib o'tdi. Buning natijasida ikki davlat o'rtasida mustaxkam diplomatik aloqalar bog'landi. Bu kabi elchi almashinuvlari, Buxoro amirligi amalda Chor Rossiyasi podsholigiga qaram bo'lsada, xuddi teng huquqli mamlakatlar o'rtasida bo'lganidek olib borildi. Rusiyaga yuborilgan elchilarni Moskva va Peterburg shaxarlarida maxsus

tayyorgarliklar bilan kutib olishdi, o'z mavqelariga yarasha mulozamat ko'rsatishdi. Elchilarga Chor Rossiyasi podsholigining tarixi, iqtisodiy va harbiy qudratini namoyish etish maksadida bir necha bor sayohatlar uyushtirildi. Shuningdek, ularning madaniy xordiq chiqarishlari uchun turfa tomoshalar va uyin - kulgular tashqil etildi. Buxoro elchilari podsholikning katta amaldorlari, savdogarlari va chet ellardan kelgan boshka elchilar bilan tanishtirildi. Bu esa o'z navbatida Buxoro amirligi xukumati nomidan kelgan diplomatik vakillarning boshqa davlatlardan (bu yerda Chor Rossiyasiga qaram bo'lgan mamlakatlardan kelgan elchilar nazarda tutilmoqda) kelgan elchilar bilan o'zaro fikr almashish imkoniyati paydo bo'ldi. Nasrullaxon hukmronlik qilgan yillar Turkiston mintaqasida Rossiya-Angliya manfaatlari o'zaro to'qnashgan davr hisoblanadi.

Nasrullaxon tomonidan va uning davrida Buxoroda Qozi Hasanxo'ja, Olimjonboy, Eshoni Pir, Mirzo Ubayd, Modorixon, Ismoilxo'ja (1829) Aliy CHo'bin, Mirzo Abdulg'affor, Tojiddin madrasalari (1860) qurildi, Xalifa Xudoydod me'moriy majmuasining qurilishi yakunlandi (1855). Bu paytda tarixchi *Muhammad Mirolim Buxoriy* «Fathnomai sultoni» («Sulton fath-nomasi») asarini yozgan. Keyinchalik mashhur alloma bo'lib yetishgan yosh Ahmad Donish Nasrullaxon nazariga tushib, saroyga xizmatga olingan⁴³.

Shuningdek, imperatorning o'zi Buxoro elchilariga alohida e'tibor qaratib, xatto faylasuf Ahmad Donishga rus tili va madaniyatini o'rganishni taklif qildi. Ahmad Donish ham imperatorga minnatdorchilik bildirgan holda, agar ko'proq vaqti bo'lganida edi, qizg'in majlislar va tomoshalarga qatnashmay rus tilini o'rgangan bo'lardim, deb javob beradi. Podsho Aleksandr II ga Ahmad Donishning bunday dadil fikrlari juda maqbul keladi va buning uchun uni taqdirlaydi ham.

Elchilarning qaytishida Rusiya podsholigi ham mezbonlarga xos sovg'a-salomlar berib alohida mulozamat bilan ko'zatib qo'yishadi.

⁴² Амир Саййид Олимхон. Бухро халқининг Ҳасрати тарихи. 25-бет.

⁴³ ЎзМЭ.6 –жилд. 279 – бет.

Muzaffarning hukmronlik davri Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakatlari kuchaygan davrga to'g'ri keladi. Rossiya bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf etishdan umidini uzmay, u Najmiddinxo'ja boshliq elchilarni Peterburgga jo'natdi (1865 y. iyul). Biroq, ko'zlangan maqsadga erishilmay, ikki o'rtada harbiy harakatlar boshlandi. Muzaffar qo'shini bilan general Romanovski boshchiligidagi Rossiya qarbiy kuchlari o'rtasidagi dastlabki to'qnashuv Jizzax bilan O'ratepa o'rtasidagi Erjar (Maydayulg'un)da bo'lib, unda Buxoro qo'shini mag'lubiyatga uchragan (1866.8.05). Muzaffar mufti Muhammad Porso boshchiligidagi elchilarni Afg'oniston va Hindiston orqali yordam so'rab Istanbulga yuborsa ham, rad javobini olgan. 1868 y. 2—3 iyunda *Zirabuloq jangida* mag'lubiyatga uchragach, 1868 y. 23 iyunda Samarqandda imzolangan Rossiya—Buxoro sulh shartnomasiga ko'ra, Buxoro amirligi Rossiyaga tobe bo'lib qolgan. O'g'li va valiahd *Abdulmalik* (Katta tura) Rossiya bosqini va otasi hukmronligiga qarshi SHaxrisabz va Kitobda qo'zg'olon ko'targanda Muzaffar rus qo'shinlari yordamida uni bostirgan (1870). Muzaffar davrida Buxoro amirligining Rossiyaga qaramligi kuchayishi bilan bir qatorda shialarning ta'siri ham ortgan⁴⁴. Buxorodagi Eshon Imlo mozorida dafn etilgan.

Bundan tashqari bu kabi tanishuvlar Buxoro amirligining boshqa qo'shni davlatlar bilan ham iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining mustahkamlanishiga sabab bo'ldi, desak mubolaga bo'lmaydi. Masalan. 1873-1874 yillarda Abdulqodirbek dodxo boshchiligida Buxoro amirligidan junatilgan elchilar imperator Aleksandr II qizining tuyi munosabati bilan boshqa mamlakatlardan taklif etilgan elchilar bilan ham tanishishdi va yaqin muloqatda bo'lishdi.

Olimxon davrida Buxoro amirligining Rossiyaga qaramligi yanada kuchaydi. Taraqqiyparvar kuchlar, shuningdek, *Yosh buxoroliklar* qattiq ta'qib qilindi. *Birinchi jahon urushi* davrida Rossiya imperatori Nikolay II uni general-leytenant harbiy unvoni bilan taqdirlagan va o'zining general-ad'yutanti qilib

⁴⁴ ЎзМЭ.6 –жилд. 112 - бет

tayinlagan (1915 y. dek.). Chunki, u Rossiyaga katta miqdorda pul bilan yordam bergan edi. *Buxoroda 1917 p. aprelʼ namoyishi*, xususan, *Kolesov voqeasi* (1918 y. mart)dan keyin u amirlik hududida 3000 kishini jadidlikda ayblab, nohaq qatl qildirgan⁴⁵.

1920 y. avg.da *Buxoro bosqini* natijasida amirlik tuzumi agʻdarib tashlandi. Sentyabr oyining oʻrtalarida Olimxon Sharqiy Buxoroga borib, Buxoro xalqining bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan mustaqillik kurashiga rahbarlik qilishga urindi. Olimxon Hisor viloyatini oʻziga qarorgoh qilib, 6 oy davomida qizil askarlarga qarshi kurashgan. Hisorda yangi hukumat tashkil qilib, buxoroliklarning qizil askarlarga qarshi olib borayotgan jang harakatlarini muvofiklashtirishga intilgan.

Buxoro xukumati elchilarining Chor Rossiyasi podsholigi bilan iqtisodiy aloqalarni mustaxkamlashi natijasida Oʻrta Osiyoga rus kapitalining kirib kelishi yanada jadallashadi. Bu esa oʻz navbatida qoloq feodal mamlakatda ham ilgor burjua munosabatlarining kengayishi va rivojlanishiga sabab boʻladi.

Buxoro amirligi xukumati nomidan Russiyaga elchi qilib yuborildi. Mazkur elchilik safarlaridan boshqa Buxoro amiri bundan avval ham, keyin ham koʻplab amaldorlar, boy savdogarlar va olimlarni Rossiya, Hindiston, Eron va Afgʻoniston davlatlariga elchi qilib yuborgan. Har bir elchilik missiyasi oldiga alohida - alohida vazifalar ham belgilab berilgan. Biz yuqorida taʼkidlab oʻtgan Ahmad Donishning 1856, 1869, 1873-1874 yillardagi Russiyaga uyushtirilgan elchilik safarining oldiga ham muxim vazifalar quyilgan edi. Mazkur vazifalar qoʻyidagilardir:

- Chor Rossiyasi podsholigi bilan Buxoro amirligi oʻrtasida mustahkam dustlik aloqasini bogʻlash. Davlatlar oʻrtasidagi mavjud iqtisodiy aloqalar, savdo - sotik, tijorat munosabatlarini yanada rivojlantirish. Podsholik va amirlik oʻrtasida madaniy aloqalarni rivojlantirish.
- Chor Rossiyasi podsholigining iqtisodiy qudratini, ishlab chikarish korxonalari ularning faoliyatini oʻrganish. Podsholikning xarbiy qudratini askarlarning texnik saloxiyatini oʻrganish va buni amirlikning nizomsiz

⁴⁵ ЎзМЭ. 6–жилд. 509 - бет

askarlariga o'rgatish.

- Podsholikdagi ta'lim tizimining asoslarini aniqlash va maktablar faoliyatini o'rganish.
- Buxoro amirligiga Chor Rossiyasi podsholigining elchilarini taklif etish.
- Imperator Aleksandr II qizining tuyi munosabati bilan Buxoro amiri Amir Muzaffarning tuy salomi va sovg'alarini imperatorga yetkazish va boshqalar shular jumlasidandir.

To'g'ri, Ahmad Donish Rusiyaga yuborilgan diplomatik missiyaga boshchilik qilmagan, ammo mazkur missiyalarga yuborilgan elchilar tarkibida eng donishmand, diplomatik qonun - qoidalarini tushungan inson edi. Uning oqilligi tufayli Buxoro amirligidan avvallari yuborilgan elchilarning ayblari ham yuvilib ketadi.

Mana shu tariqa rus hukumati Buxoro iqtisodiyotining eng katta belgisi va eng muhim ko'rsatkichi hisoblangan hamda davlatning oliy belgilaridan biri bo'lgan — pul masalasiga ham o'z ta'sirini o'tkazishga va uni Buxoro iqtisodiy hayotidan umuman olib tashlashga muvaffaq bo'ldi. Natijada, Buxoroda rus hukumatining qattiq tazyiqi va siquvi ostida pul islohoti amalga oshirildi. Bir necha yuz yillar davomida muomalada bo'lgan Buxoro tangasi muomaladan olib tashlandi. Buxoro pul tizimi amalda yo'q qilindi. Buxoroda pul islohoti rasman amalga oshirilgandan so'ng, juda katta miqdorda rus kredit pullari, rus tilla va kumush tangalari olib kelindi va Buxoro ichki bozorlarida muomalaga kiritildi.

Rus burjuaziyasi va rus savdogarlari, eng avvalo, rus hukumati manfaatlarini hisobga olib, juda qattiq tazyiq va siquvlar asosida chor Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligida o'tkazilgan pul islohoti to'la ma'noda mustamlaka mohiyati va mazmuniga ega edi. Ushbu islohotni amalga oshirishdan ko'zlangan eng katta maqsad — bu Buxoro iqtisodiyotini, uning ichki bozorlarini, amirlikning barcha iqtisodiy tizimini to'la o'z izmiga tushirib olish va uni o'z xohishi asosida idora qilishni yo'lga qo'yishdan va shu bilan birga, Buxoro bozorlarida rus sanoati mollari va rus burjuaziyasi gegemonligini yanada mustahkamlashdan iborat edi. Buxoroda pul islohotining o'tkazilishi amirlikni

Rossiyaga nisbatan iqtisodiy qaram qilish g'oyasining amalda joriy etilishi namunasi hisoblanadi. Ushbu yo'l orqali Rossiya Buxoro amirligi mustaqilligiga juda katta siyosiy va huquqiy zarba berishga muvaffaq bo'ldi.

Chor Rossiyasi xukumati O'rta Osiyo xonliklarining katta hududlarini bosib olgach, u yerlarda o'z hukmronligini to'la o'rnatib, XIX asrning so'nggi choragidan boshlab o'z mavqeini yanada mustahkamlashga katta e'tibor qarata boshladi.

Aynan mana shu borada olib borilgan ishlar jumlasiga chor Rossiyasining O'rta Osiyoda temir yo'llar kurish siyosati ham katta urin tutadi. O'rta Osiyo xududlarida rus hukumati tomonidan temir yo'llar qurish siyosati uning Turkiston o'lkasida o'z mavqeini mustahkamlash borasida olib borgan ishlari ichida eng muhimlaridan biri edi.

Turkiston o'lkasida temir yo'llar qurish masalasi eng avvalo siyosiy, harbiy-strategik va iqtisodiy masalalar yechimi nuqtai nazaridan kun tartibiga olib chiqilgan edi.

Chor Rossiyasi hukumati turli xil yo'llar bilan Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi ustidan o'rnatilgan o'z hukmronligini yanada kuchaytirish bilan bir qatorda, Sharqda o'z mavqeini mustahkamlashdan o'ta manfaatdor bo'lganligi sababli ham, barcha vositalar bilan inglizlarning O'rta Osiyoga suqilib kirishining oldini olishga harakat qila boshladi.

Bizga ma'lumki, Qo'qon xonligining to'la chor Rossiyasiga qo'shib olinishi, Buxoro va Xiva xonliklarini qisman bo'ysundirilishi ingliz-rus aloqalarining, ayniqsa, Yaqin Sharq masalasi bo'yicha raqobatni yanada keskinlashuviga olib keldi.

Ushbu kelishmovchilik hatto Angliya bilan Rossiya o'rtasida o'zaro shartnoma imzolangandan so'ng ham to'xtamadi.

III. Bob. Dars ishlanmasi: “*Mang’itlar davrida Buxoro amirligining iqtisodiy tarixi*”

Darsni olib borish texnologiyasi.

O’quv fanining nomi: O’zbekiston tarixi.

Sinf: 8 sinf. III bob 20 g

O’quvchilarning soni: 30 tagacha.

Darsni olib borish usuli: aralash dars.

Mavzuning nomi: “*Mang’itlar davrida Buxoro amirligining iqtisodiy tarixi*”

Darsning maqsadi: – XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligi bo’yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

Ta’limiy maqsad: O’quvchilarga, xalqimizning o’ziga xos iqtisodiy turmush tarzi va Buxoro amirligidagi iqtisodiy ahvol, tovar-pul munosabatlari haqida bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: Xalqimizga munosib farzand qilib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi ta’lim: Guruhlarda ishlash orqali o’z bilim darajasi ko’nikmasini rivojlantirish.

O’quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi.

Metod: Nima uchun. Aqliy hujum.

Shakl: Yakka tartibda yoki guruhlarda ishlash.

Vosita: Mavzuga oid darslik, atama, tushuncha, sanalar yozilgan kartochkalar.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.5 daqiqa.

O’quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, darsga jalb qilish, sinfda darsga tayorlash, dunyoda va O’zbekistonda yuz bergan muhim yangiliklardan qisqacha xabarlar berish.

II.Uy vazifasini takrorlash.5 daqiqa.

«O’tilgan mavzu yuzasidan savol-javob qilinadi. (savol-javob taxminan qo’ydagicha bo’lishi mumkin.)

1. Buxoro amirligi qanday vujudga kelgan?

2. **Amirlikdagi yer mulkchilikning shakllarini aytib bering.**
3. **Ekin yerlariga suv chiqarishda qanday inshootlardan foydalanilgan?**

III. Yangi dars mavzusini ro'yobga chiqarish ustida ishlash. 20 daqiqa.

O'qituvchi «Aqliy hujum» orqali ma'ruza qiladi.

Reja

1. Buxoro Amir Haydar hukmronligi davrida.

2. Amirlikning ichki va tashqi siyosati va aholining turmush tarzi.

3. Buxoro amirligidagi iqtisodiy tanglik oqibatlari.

4. Chor Rossiyasi kapitalining kirib kelishi.

1- masala

XVIII asr oxirlarida qaror topgan davlat hokimiyatini mustahkamlash XIX asr boshlarida yanada rivoj topdi.

Shohmurodning davlat hokimiyatini mustahkamlash borasidagi siyosatini uning o'g'li Haydar (1800-1826 yy.) davom ettirdi. U amir etib tayinlangunga qadar Manng'itlarning ota meros mulki hisoblangan Qarshi shahrida hokim edi. O'sha davrdan boshlab taxt vorislari Qarshida hokimlik qilish odat tusini olgan.

Amir Haydarning hokimiyati tepasiga kelishi davrida katta g'alayonlar ro'y berdi. U Buxoroga bo'ysunishdan bosh tortgan SHahrisabz, Urgut bekliklariga, Miyonqolga qarshi janglar olib borishga majbur bo'ldi.

Marv (1800 yil) va Karki tuman – turkmanlari qo'zg'olon ko'tardi. Bu erda amirning ukasi Nasriddinbek qo'zg'olonga boshchilik qilgan, engilgach Mashxadga qochgan.

O'rtepa tufayli Qo'qon xoni Alimxon bilan urush boshlandi.

Amir Haydar Harbiy kuch samara bermagan vaziyatlarda kelishuvchanlik yo'lini tutdi. Xususan, bo'ysunmagan SHahrisabz mahalliy hokim Doniyor vallomaga mulk sifatida taqdim etildi va SHahrisabz vohasi to 1858 yilgacha deyarli mustaqil ravishda boshqarildi. O'rtepa bekligi ham bo'ysindirildi va amirlik hududi ancha kengaydi. Buxoroga tobe bo'lgan Marvda ko'tarilgan turkmanlar qo'zg'olonini, Ayniqsa, 1821-1826 yillarda Miyonqolda bo'lib o'tgan qo'zg'olonni bostirish uchun katta kuch sarflandi.

Doimiy urushlar aholi gardoniga yangi-yangi soliqlarni olib xonavayron qildi. Amaldorlarning o'zboshimchaligi kuchaydi.

1821-1825 yillarda Zarafshon vodiysining o'rta qismida, Samarqand bilan Buxoro oralig'idagi Miyonqoldagi o'zbek qabilalari o'rtasida qo'zg'olon ko'tarildi. Ular Movarounnahrni doimo tahlikaga solib keluvchi "yetti qabila" tarkibiga kiruvchi yarim ko'chmanchi Xitoy-qipchoqlar edi. (Ikki qadimiy turkiy qabila-xitoy va qipchoqlardan iborat bo'lgan).

Qo'zg'olonga Marvga jo'natish uchun qo'shin to'plash muddatidan ilgari aholidan er solig'i olinishi, do'q po'pisa bilan pora olish va azob berish sabab bo'lgan. Qo'zg'olonchilarga ulardan janub tomonda yashovchi xo'jalik uritish va turmush jihatdan ulardan kam farqlanuvchi mahalliy qoraqalpoqlar ham qo'shilishdi.

Qo'zg'olonchilar amir ma'murlarini kaltaklashdi, Katta Qo'rg'on, Chelak, YAngi Qo'rg'on va boshqa shaharlarni zabt etishdi. Kattaqo'rg'onda ularni aholining kambag'al qismi ko'plab quvvatladi.

O'ziga to'q shaharliklar esa amir qo'shinlarini chaqirishdi.

Amir Kattaqo'rg'onga qo'shin uborib, qo'zg'olonchilarni ommaviy ravishda qonga beladi. Ko'p o'tmay, amirning o'zi qo'shinga bosh bo'lib Miyonqolga kirib bordi. Qo'zg'olonchilar qal'aga yashirinib jon saqlashdi. Amir qo'shinlari ekinlarni poyxon qilib, juftakni rostlab qolishdi. 1822 yilda amir xitoy-qipchoqlar qal'asini egallashga yana bir bor urindi, lekin evini qilolmadi. Ayni vaqtda, chamasi, qo'zg'olonchilar bilan kelishgan holda shimol va shimoli sharqdan hujum qilgan xivaliklardan amir himoyalanishga majbur bo'ldi. Keyin xitoy-qipchoqlar qo'qonliklarni, SHahrisabz kenagaslarini chaqirib, Samarqandni egallashga urinishdi. Biroq ko'p o'tmay, qo'zg'olonchilar o'rtasida kelishmovchilik paydo bo'lib, qo'qonliklar Farg'onaga qaytishdi. Lekin qo'zg'olonchilar o'z harakatlarini susaytirishmadi. Ular Amir Haydarning amakivachchasi Ishoqbekni amir qilib saylashdi. Samarqandni qamal qilishib, uni egallamoqchi bo'lganlar. Barcha manbalarda, qo'zg'olonning tor-mor qilinib tugatilishini haqida emas balki jang qilayotgan tomonlarning kelishuvi va roziligi bilan tugadi, deb ma'lumot berilgan.

Amirning xitoy-qipchoqlar bilan kelishuvi Qo'qon elchilari Azimboy dodhoh va xojikalon mansabidagi Eshon Sultonlar ishtirokida bo'lib o'tgan.

Yangiqo'rg'on qal'asi qamalidagi Xitoy - qipchoqlar tomonidan qo'yilgan shartning amir tomonidan qabul qilinishi shuni anglatadi-ki, xitoy-qipchoqlarning qiyin ahvoldagiga qaramasdan ular juda katta, salobatli kuchga ega bo'lganlar. Albatta, amir buni hisobga olmasdan iloji yo'q edi. Bu qo'zg'olon kichkina hududdan boshlanib, katta hududga tarqaldi.

Bu xonni alohida urug' va qabilalarning amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda o'z mavqeini egallashga bo'lgan harakat, deb baholash mumkin.

Xitoy-qipchoqlar Zarafshon vodiysidagi eng hosildor hududni egallagan o'zbek urug'laridan edi. Bu qo'zg'olon aholining ahvolini yaxshilamadi. Biroq Buxoro amirligi tarixida o'chmas iz qoldirdi. 4 yil davom etgan qo'zg'olon o'z davridagi eng yirik ijtimoiy voqealardan edi. Qo'zg'olon amir xazinasining barakasini uchirib uning qo'shiniga bir necha bor sezilarli talofat etkazdi. O'sha paytda Buxoro amirligining kuchsizlanishidan foydalanib o'z hududlarini kengaytirgan Xiva, Qo'qon va SHahrisabz kabi qo'shinlari oldida siyosiy obro'yini tushirib ubordi.

1825 yilda qo'zg'olonchilarning shaxsiy daxlsizligi haqida yozma kafolat berilgach, amir Haydarga o'z qal'alarini topshirishgan.

Qo'zg'onga tumanlardagi kambag'al odamlar va shahar aholisi jalb qilingan, biroq umumiy rahbarlikning yo'qligi va maqsadning mavhumligi mag'lubiyatga olib kelgan.

1826 yilda amir Haydar vafotidan keyin bir necha oy mobaynida ikki hukmdor almashindi. Birinchisi amirning birinchi o'g'li Husayin zaxarlab o'ldirildi, ikkinchi o'g'li Umar suyuqasd qurboni bo'ldi. Va taxtga uchinchi o'g'li Nasrullaxon (1826-1860) o'tirdi. Akalari o'limidan so'ng, unga davlat boshqaruviga kelishiga ko'mak bergan barcha kishilarni qirib tashlagan. Bir oy ichida har kuni 50-100 kishini o'ldirtirdi. SHuning uchun ham xalq uni "amir qassob" deb atay boshlagan. Bu borada unga yordam bergan, eng yaqin yordamchisi Rais Rahmonberdi Niyoz bo'lgan.

2-masala

Buxoro amirligida ichki hayot xonlik davridagidek davom etar edi. Er egaligining asosan 3 turi – amlok (amir boshchiligidagi mulkdorlar ruguhi ixtiyoridagi erlar) mulk (xususiy er egalariga qarashli) va vaqer (musulmon ruhoniylari, madrasa, masjid va mozorlarga qarashli) erlari mavjud bo'lgan.

Xonlikda dehqonlar erni asosan, ijaraga olib ishlar edi. Soliq turi va to'lovlarning ko'pligidan, begor majburiyatidan bezor bo'lgan mehnatkash xalq tez-tez g'alayon qilib turar edi. Dehqonchilikda asosan g'alla, paxta ekilgan. Ipakchilik ko'proq Zarafshon vodiysida rivojlangan.

Buxoro amirligidagi juda ko'plab mulki xurri-xolis, mulki ushri va vaqf er mulklari Zarafshon vohasi tumanlariga, ayniqsa Miyonkol hududiga to'g'ri kelgan. Buning asosiy sababi Buxoro amirligining boshqa hududlariga nisbatan bu erda sug'oriladigan er maydonlarining ko'pligi holda tuprog'ining hosildorligi edi.

Chorvachilikda ot, tuya, qoramol, qo'y boqilgan.

Hunarmandchilikning ko'p turlari ravnaq topgan. Xususan, to'qimachilik, tikuvchilik, misgarlik, zargarlik buumlari xonlikdan tashqarida ham xaridorgir bo'lgan.

3- masala

Amir Haydar vafotidan keyin taxtni uning uchinchi o'g'li egallaganligini aytgan edik.

Uning hukmronligi davrida (1826-1860) ham ichki va tashqi dushmanlar bilan to'xtovsiz kurashlar bo'lib turdi. Eng avvalo u taxtni egallashda yordam bergan (ya'ni Nasrulloning o'z akalari qotili bo'lganligini bilgan) kishilarni yo'q qildi. Va o'z dushmanlarida qo'quvni kuchaytirish, o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun Buxoroda har kuni ko'plab kishilarni qatl etib turdi.

Bundan tashqari Buxoroga bo'ysunmagan iqtisodiy ancha kuchli bo'lgan bekliklarga qarshi o'zoq kurash olib bordi.

U qo'shinlarga tayangan holda o'zbek feodal zadagonlarini beayov qira boshladi. U Shaxrisabz bekligiga qarshi olib borilgan urushlar o'zoq davom etdi. 1832 yilda boshlangan bu urushlar 1858 yilda Shahrisabz va Kitob beklarining

bo'ysundirilishi bilan yakunlandi. SHahrisabz egallangandan so'ng u mahalliy hukmdor Iskandar Vallomaning singlisiga uylanadi.

Buxoroda "Kenagas xonim" nomi bilan mashxur bo'lgan bu asur ayol amir Nasrulloning qulog'iga simob quyib o'ldirishga urinib ko'rganligi manbalarda qayd etilgan.

Bu davrda Qashqadaryo vohasidagi Chiroqchi bekligi Buxoro amirligida hududi bo'yicha eng katta bekliklardan hisoblangan. SHimolda jom bilan, SHarqda Shahrisabz va Yakkabog' bekliklari bilan Janubda Tezabkent qishlog'i G'o'zor va Qarshi bekliklari, Qorabog' qishloqlari bilan chegarada bo'lgan.

Beklik amir tomonidan tayinlanib qo'yiladigan mahalliy qabila boshliqlari, katta mulk egalaridan iborat hokmilar, beklar tomonidan boshqarilgan. Bek va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmasdan, ular mahalliy aholidan olinadigan turli tuman soliq va to'lovlar hisobiga yashaganlar.

Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, amirlikda 40 ga yaqin asosiy soliq turlari bo'lgan. Bekliklar xiroj-er solig'i; zikot-chorvadorlardan har qirq bosh chorvadan bir bosh hisobida; avorizot – favqulodda yig'iladigan harbiy soliq; Qorachirik – Buxoro amirligi qo'shinlarini boqish uchun; YAksaraqo'sh puli (qo'sh xo'kizi bolalardan yig'ilgan); cho'p puli; Xarbo'z puli – Lalmikor erlarga ekiladigan tarvo'zlar uchun olingan. Muhrona - qozi, mufti, rais va boshqa hukmdorlar foydasiga muhr uchun yig'ilgan; xizmatona o'zaro tortishuvlarni hal qilib berganligi uchun qozi, beka berilgan; Vasiqa puli va boshqalar. Bundan tashqari o'nga yaqin qo'shimcha soliqlar yig'ilar edi.

Chiroqchi bekligi XIX asrning 2-yarmida amirlikni g'alla bilan ta'minlovchi asosiy bekliklardan biri hisoblangan. Bug'doy Qarshi, Buxoro, Kattaqo'rg'on bozorlariga olib chiqilgan.

Barcha bekliklarda Buxoro amirligida mavjud pullar muomalada bo'lgan. Buxoro amirligida qog'oz pullar bo'lmagan, ruslar bosqini davrida Buxoro tangalari metaldan, ya'ni oltin, kumush va misdan zarb qilingan. Oltin pul-tilla, kamida 1917 yilgacha bo'lgan rus puli birligida 4 rublni, kumush pullar tanga-15-20 kopeykni, miss tangalar esa – "pul" deb atalgan. Amirlikning asosiy pul birligi

tanga bo'lib, tangalarning qiymati tez-tez o'zgarib turgan.

Amirlikning shimolidagi chegara shaharlari (Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax, Zomin) uchun Qo'qonliklar bilan bo'lgan nizolar davom etdi va harbiy jihatdan ancha kuchi bo'lgan Buxoro qo'shinlari bu shaharlarni asta-sekin o'ziga bo'ysundirdi. Amir Nasrullo 1842 yilda Qo'qon shahrini ham egallaydi va Qo'qon xoni Muxammad Alixonni oila a'zolari bilan birga qatl ettiradi. Hatto iste'dodli shoira Nodirabegimga ham shafqat qilinmadi. Bunda Nasrullaxonga Qo'qon xonidan norozi bo'lgan ba'zi amaldorlar ham yordam berdilar.

Qo'qonlik 250 nafar yirik amaldorlar oilasi bilan asirga olinib, buxoroga jo'natildi. Ko'p o'tmay Toshkent ham Buxoroga qo'shib olindi.

Biroq uch oy o'tganidan keyin 1842 yil yozida Qo'qonda qo'zg'olon ko'tarilib, Nasrulloning hokimiyati ag'darib tashlandi. Soliq yig'uvchilarning zulmidan to'yib ketgan Qo'qonliklar Farg'ona vodiysida ko'chib urgan qipchoqlar bilan aloqa bog'lashdi va Olimxonning Talasda yashayotgan jiyani – SHerali xon, deb ko'tarildi.

Buxoroning noibi qochdi, buxorolik qo'shin va amaldorlar qirib tashlandi.

XIX asrning o'rtalarida Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida chegara shaharlar uchun tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turar edi.

Bu to'qnashuvlar mehnatkash xalq zimmasiga yangi soliqlar solinishiga va aholi turmushining og'irlashishiga olib keldi. Natijada bir necha marta xalq g'alayonlari uz berdi. Hukmronligining so'nggi yillarida davlat ishlaridan ko'ra ko'proq ayshu-ishratga berilib ketgan Madalig'ondan (Muxammad Alixondan) norozi bo'lgan unga qarshi fitna tayyorlaydilar.

Qo'qonda Madalig'on o'zotasining kanizagiga, ya'ni o'gay onasiga uylandi va bu bilan u musulmonlikdan chiqib, kofir bo'ldi, degan gaplar tarqatildi. Davlatni boshqarishda katta tajribaga ega bo'lgan va xonning yaqin maslahatchisi Mingboshi Haqquli tuhmatga uchrab, xon tomonidan qatl etilgani fitnachilarga yanada qo'l keldi. Fitnaga bosh qo'shgan Qozi kalon, Lashkarboshi, sarkarda Isoxo'ja, mingboshi, Toshkent hokimi va boshqalar Madalixonni taxtdan ag'darib, Olimxonning o'g'li SHeralini yoki Murodbiyning o'g'li Xo'jabiyini (u

Norbo'tabiyning ukasi edi) xon qilib ko'tarmoqchi bo'ladilar. Lekin Madalixonni o'z kuchlari bilan ag'darishga ko'zi etmagan fitnachilar Buxoro amiriga bir necha maktub bitib, elchi uborib, amir Nasrulloxondan "Kofir" deb e'lon qilingan Madalixonni taxtdan ag'darish va jazo berishni iltimos qiladilar. Uqorida qayd etganimizdek, 1842 yil aprelida katta qo'shin bilan kelgan amir Nasrullo jangsiz Qo'qonni egallaydi. Namangan yo'lidan tutib keltirilgan Madalixonni taqdirini ham aytgan edik. Buxoroga qaytgan Nasrulloxon 3 oydan so'ng noib etib qoldirgan Ibrohim dodhohni va uning ukasi Ishoq Manng'itni qochib kelganidan g'azablanib ularni qattiq jazolab mol-mulkini tortib oladi va 1842 yil ko'zida 20 ming qo'shin bilan yana Qo'qonga urish qiladi. Qo'shin safida garovga olingan 250 ta Qo'qonlik amaldor ham bor edi. Qo'qon ahli taslim bo'lish haqidagi taklifni rad etadi. SHunda garovga olingan amaldorlardan biri, Madalixon davrida uzboshi bo'lgan Msulmonqul qipchoq Qo'qonliklarni taslim bo'lishga ko'ndirishni o'z zimmasiga olib, amir ruxsati bilan Qo'qonliklar ho'zuriga keladi. Lekin u Qo'qonliklarni amir qo'shinlariga taslim bo'lmaslikka undab, shahar mudofasining kuchaytirishga bosh bo'ladi. Bundan qattiq g'azabga tushgan amir Nasrullo Qo'qonni qo'lga kiritmasdan qaytmaslikka ahd qilib shaharga qattiq hujum qiladi. Lekin qamal cho'zilib keta boshlaydi. Bu orada Xiva qo'shinlari Buxoro chegaralariga bostirib kirib, bir necha uz oilani asir olib ketganligi haqidagi xabarni olgan amir Nasrullo garovga olingan amaldorlarni ozod qilib Buxoroga qaytishga majbur bo'ladi. Bu vaziyatda Musulmonqul qipchoq mingboshi lavozimini oladi. SHunday qilib Qo'qon xonligidagi boshqa lavozimlar ham qipchoq beklariga topshiriladi. Shundan 1845 yilgacha Qo'qon xonligida xotirjamlik hukm surdi.

4-masala

Nasrullo hukmronligi davrida Buxoro chor Rossiyasi va Angliyaning raqobatchilik kurash maydoniga aylandi. Bu kurash XIX asrning 30-yillarida boshlangan edi.

Angliya 30-yillarning boshlarida Hindistonda shimolda joylashgan mamlakatlar bilan tanishish maqsadida maxsus ayg'oqchilarini ubora boshladi.

Ular maxsus ekspeditsiya niqobi ostida ish olib boradigan ingliz ofitserlari

ish olib bor edi.

Ekspeditsiyalar xonliklarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar to'plar edi. Bu erdagi yo'llarni izlar, nufo'zli mahalliy doiralar bilan aloqa o'rnatishga urinar edi. O'rta Osiyo bilan savdoni yo'lga qo'yimoqchi bo'lgan hind savdogarlariga turli yordamlar ko'rsatar edi. Ularga o'zoq muddatli kreditlar va ingliz mollari berib turilardi. Bahosi Rossiya mollari bahosidan arzon ingliz mollarini jo'natish yo'li bilan O'rta Osiyo bozorlari egallanar edi.

1821-1825 yillarda U.Murkroft va D.Trebek Buxoroga katta siyosiy vakolatlar bilan, Kal'kuttadagi ikkita yirik ingliz savdo kompaniyasi madadidan foydalanib 5-ming funt sterning baholi mollarni olib kelgan edi. Uning otryadi yaxshi qurollantirilgan bo'lib hatto to'plash ham bor edi.

XIX asrning 30-yillarida Rossiyaning Erondagi savdosi keskin kamaydi. Bunga Rossiya – Eron urushi (1826-1829) va Rossiya – Turkiya urushi (1828-1829 yy.) sabab bo'lgan edi. O'sha davrda ingliz razvetkasining faoliyati jonlanib ketdi.

1831 yili ingliz armiyasi leyтинanti Aleksandr Byorns (1805-1841) boshchiligida Ost – Hindiston kompaniyasi xizmatchilari hamda shifokor Jererd, xattot tarjimon Maxan Lallar Murkroft Trebek o'tgan yo'llardan o'tib 1932 yil iun oyining o'rtalarida Qarshiga 27 iunda Buxoroga kirib keldi. Berns o'zini arman savdogari deb tanitdi.

Ular joyning topografiyasi, tabiiy sharoiti, oziq-ovqat hamda em-xashak zahiralar, daryo-kechuvlari va hakoazolarni o'rganadi. Buxoroga kelgan savdogarlardan qo'shni davlatlarning ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni ham yig'gan.

1838 yildan keyin, ayniqsa 1838 yildan boshlab O'rta Osiyo davlatlariga janubdan Hindistondagi britan mulklaridan bo'lgan tahlika kuchaya bordi. Afg'oniston egallanib mustaqil hukmdor Do'stmuhammadxon o'rniga (1839 yil bahorida) inglizlar gumashtasi SHujulmulk tayinlandi. U ikki yil hokimiyat tepasida turdi. Bu davr mobaynida afg'on xalqi norozilik qo'zg'olonini ko'tarib qochishga majbur qilgan edi.

Ingliz ayg'oqchilari O'rta Osiyo xonlarini Rossiyaga qarshi qo'yishga

urinishar edi.


XIX asrning 20-50 yillarda O'rta Osiyo Rossiya bilan Angliya olib borgan salbiy kurash maydoniga aylangan edi.

1847 yilda Hozirgi Aral'sk shahri (Raim istohkoni) qurildi, Ettisuv Olotog'dagi Kanal istehkomi qurildi.

1847 yilda Xiva elchilari Peterburga borib, yorliqlar topshirib, podsho qabulida bo'ldilar.

IV. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. 10 daqiqa.

O'rganilgan mavzuni mustahkamlash suhbat jarayonida quyidagi savollar asosida o'tkaziladi: ("Nima uchun" pedagogik texnologiyasi orqali amalga oshiriladi.) yoki tarqatma material testlardan foydalaniladi.



- 1. Hunarmandchilik tovar-maxsulotlari nimalardan iborat?**
- 2. Uy ro'zg'or buyumlari asosan nimalardan yasaladi?**
- 3. Chorvachilik maxsulotlari sirasini bilasizmi?**
- 4. Teri maxsulotlari nima uchun foydalanishgan?**
- 5. Pul muomilasi qanday bo'lgan?**
- 6. Xonlik tangasi bilan hozirgi tangalarning nima farqi bor deb o'ylaysiz? ularga misollar keltiring.**
- 7. Dehqonchilik maxsulotlarining asosini asosan nima tashkil etgan bo'lish mumkin.**

1. Amirlik taxtiga rasman qachon mang'itlar sulolasi keldi?
A) 1756 y
B) 1701 y
V) 1747 y
2. Qaysi hukmdor davrida Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa beklklarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi?
A) Muhammad Rahimxon
B) Amir Shohmurod
V) Doniyolbiy otaliq
3. Devonbegining vazifasi qanday bo'lgan?
A) bosh vazir
B) davlatning moliya-xazina ishlarini boshqargan
V) vaqf mulklarini boshqargan
4. Qaysi amir Marv yaqinida Islomobod shahrini qurdirgan?
A) Shohmurod
B) Rajabxon
V) Muhammad Rahimbiy
5. Amlok yerlari qanday yer egaligi edi?
A) xususiy
B) davlat
V) vaqf
6. Tokzor, yo'ng'ichqa, mevali daraxtzorlardan qanday soliq olingan?
A) xachi
B) salg'ut
V) tanobona
7. Buxoro amirligida hunarmandchilikning asosiy sohasini aniqlang.
A) misgarlik va zargarlik
B) to'qimachilik
V) temirchilik
8. Xazinaga eng ko'p daromad qanday yerlardan tushgan?
A) davlat
B) vaqf
V) xususiy
9. XVI asr boshlarida qaysi shahar qurol-yarog' ishlab chiqarishning markaziga aylangan?
A) Toshkent
B) Buxoro
V) Samarqand
10. Buxoroda savdo markazlari nima deb atalgan?
A) tim
B) toq
V) chorsu

V. Darsning yakunlarini chiqarish. 3 daqiqa.

O'quvchilar a'lo va na'munali boholar bilan baholanadilar.

VI.Uyga vazifa.2 daqiqa.

Uyga vazifada 111-115 betlarni hamda o'qib kelish 116-117 betlardagi testlarni javobini topish.

XULOSA.

Tarixiy tadqiqotlarda keltirilishicha, mang'itlar yirik turkiy urug'lardan biri bo'lib, ular dastlab XII-XIII asrlarda Dashti Qipchoq, Idil (Volga) va Yoyiq daryolari oralig'ida yashagan. XIV asrning oxirida Oltin O'rda davlatidan ajralib chiqib, alohida Mang'it O'rdani tashkil qilganlar.

Ashtarxoniylar sulolasi o'rniga kelgan Muhammad Raximning taxtga rasman o'tirishi (1756 y. 16 dek.) dan boshlangan. Muhammad Rahimxon Qarshi tomonida yashagan "Oy eli to'q mang'it" urug'ining vakili bo'lib, ekin yerlari, mulk, chorva mollari va katta sarmoyaga hamda o'z qabilasi va qo'shni qabilalar o'rtasida e'tibor va nufuzga ega edi. O'z kelib chiqish rishtalari jihatidan ba'zi mang'itlar ashtarxoniylar, temuriylar va chingiziylarga bog'lanadi. Muxammad Raximxon o'zbek (turk) xalqidan bo'lib, chingiziylarga aslo bog'lanmaydi⁴⁶. Mang'itlar qavmining to'q mang'it urug'iga mansub bo'lgan sulolasi vakillari Buxoro amirligida katta imtiyozlarga ega bo'lib bordilar.

Buxoro amirligi monarxiya boshqaruv tizimiga asoslangan bo'lib, davlat boshida amir turgan, viloyatlarni beklar va amlokdorlar boshqargan va ular o'z navbatida amirga buysungan. Mamlakatda davlat boshqaruvi to'laligicha shariat qonunlari asosiga qurilgan edi. Davlat boshqaruvi idoralari markaziy va maxalliy tizimlardan tashqil topgan. Mahalliy boshqaruvda viloyatlarni amir tomonidan tayinlangan beklar boshqargan, bekliklar o'z o'rnida amlokliklarga bo'lingan. amlokliklar o'z tarkibiga bir necha qishloqlarni qamrab olgan. Amlokdorlar bek tomonidan tayinlangan. qishloqlarni esa qishloq oqsoqollari boshqargan.

XVIII asr oxirida Buxoro amirligi xududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohalaridagi mulklar kirgan bo'lsa, XIX asr boshlariga kelib, amirlik tarkibiga bu xududlardan tashqari Surxon vohasi, Xisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent hamda Zarafshon daryosining yuqori oqimi va janubiy Turkmanistonning katta qismi ham kirgan. Bularning bari XIX-XX asr boshlarida Buxoro amirligi boshqaruv tizimida

⁴⁶ Рахматов М. Манғитлар уруғи тарихидан.// Ўзбекистон тарихи ёш тадқиқотчилар нигоҳида. Т.: "O'zbekiston".2010. 29-30 -бет.

o'zgarishlar bo'lib turishiga sabab bo'lgan. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi tasarrufida 44 ta beklik bo'lganligi e'tirof etiladi⁴⁷.

Yuqoridagi ma'lumotlar Buxoro amirligidagi bekliklar soni va ma'muriy bo'linishida o'zgarishlar bo'lib to'rganligini ko'rsatadi, bu avvalambor mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqealar, o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Ba'zi kichikroq bekliklarning iqtisodiy jihatdan baquvvatroq bekliklar tasarrufiga o'tganligini ko'zatish mumkin (masalan: Yurchi bekligi Denov bekligi tarkibiga, Sarijuv bekligining bir qismi Denov, bir qismi esa Xisor bekligi tarkibiga qo'shib yuborilgan).

Davlat boshqaruvi masalasida Buxoro amirligida paydo bo'lgan o'zgarishlar Ahmad Donishning Moskva va Peterburg shaharlarida bo'lishi bilan bog'liq. Uning u yerda davlat boshqaruvining o'ziga xos shakllarini ko'rishi unda boshqaruv tizimiga oid yangidan-yangi qarashlarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ma'lumki, mazkur davrdagi Buxoro amirligidagi boshqaruv tizimi davr nuqtai nazaridan qaralganda juda eskirib qolgan hokimiyat Chingizxon zamonidan qolgan tartib asosida boshqarilmoqda edi. SHuning uchun ham Ahmad Donish davlat boshqaruv apparatini zamona talabiga mos xolda qayta qurish kerak, degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Rossiya podsholigidagi boshqaruv tizimi Donishning fikricha, Buxoro amirligi boshqaruv tizimidan yaxshiroq edi.

Vohaga ruslar kirib kelgandan so'ng Sherobod bekligi tarkibida yangi boshqaruv tizimi joriy qilingan. Termiz ikki qismdan iborat bo'lib, uning harbiy garnizon joylashgan sharqiy qismi qal'a bilan o'rab olingan. Shaharning bu qismida xokimiyat garnizon boshlig'ining qo'lida bo'lib, shu hudud aholisi ham unga buysunardi. Termizning janubiy qismi Pattakesar qishlog'i deb atalgan, undagi mahalliy aholi Buxoro amirining qonunlariga amal qilib, amir tomonidan tayinlangan beklarga buysunar, bu yerda yashagan rus fuqarolari (yvropalik aholi) esa Rossiya imperiyasi, ya'ni shahar kengashi tomonidan idora qilinardi. SHunday qilib, birgina Termizning o'zida uch xil boshqaruv tizimi mavjud bo'lganligiga

⁴⁷ Ражабов К.Хасанов Ф. Туркистоннинг Россия империяси томонидан босиб олинishi (19 аср ўрталари-1917 йил февраль). ЎзМЭ. 12-жилд. 159-164-бетлар.

guvoh bo'lamiz. Bunday murakkab boshqaruv tizimi mahalliy aholiga ham katta qiyinchiliklar tug'dirgan. O'zbek davlatchiligi tarixiga nazar tashlasak, Buxoro amirligidagi davlat boshqaruvi siyosatining o'ziga xosligi, ayniqsa so'nggi amirlardan bo'lgan Amir Muzaffarning mamlakat iqtisodiy xayotini ko'tarishda tijoratchi va tadbirkor shaxslarga yaratgan imkoniyatlari, xamda mamlakatda ro'y bergan o'zgarishlar va ularning jamiyat hayoti uchun favqulodda muhim ahamiyatini alohida e'tirof etish joiz hisoblanadi.

Amirlikdagi yuqori diniy amaldorlardan biri hisoblangan shayxulislom XVII—XVIII asrlarda davlatda eng oliy toifali din vakili hisoblangan. Ammo biz ko'rib chiqayotgan davrda uning vazifalari ancha torayib, asosan, arzlar va Pay-g'ambar hamda uning xalifalari bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan masalalarni ko'rib chiqishdan iborat bo'lib qolgan.

Amir Muzaffar davrida amir qo'shinlariga *amirilashkar*, ya'ni askarboshi rahbarlik qilgan. Qo'shinda *mufti askar* mansabi mavjud bo'lgan. XIX asrning 60 yillarida amir qo'shinlarining amiri-lashkari Usmonbek degan shaxs bo'lgan. U rus armiyasidan qochib kelgan kazaklardan bo'lgan. Buxoro qo'shinlarining asosini „otliq“lar tashkil etgan. Piyodalar ozchilikni tashkil etgan. Amir qo'shinining eng yaxshi qismi bu yollangan afg'onlar bo'lgan.

Amir Muzaffar davrida ham amirlik beklklarga bo'lingan bo'lib, beklar amir tomonidan tayinlangan. Bekliklarning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi rahbarligida yasovullar bo'lgan. Beklik hududidagi qo'shinlarga beklar o'zi rahbarlik qilishgan.

Buxoro amirligi tarixi, davlat tuzumi to'g'risida tadqiqot olib borishgan ko'p olimlar diniy unvonlar to'g'risida to'xtalishganda ba'zan muftiy, qozi va boshqalarni ham ko'rsatib o'tishgan. Aslida bu noto'g'ri. Boshqacha qilib aytganda, ular unvon bilan amalni chalkashtirib yuborishgan.

Davlatni boshqarish, uni rivojlantirish xalqning farovonligini ta'minlash, ularning osoyishta hayotini ta'minlab berish ko'p jihatdan shu davlat tizimiga, unga rahbarlik qilgan tarixiy shaxsga, davlat boshqaruvining to'g'ri tashkil

etilganligi va ushbu tizimning kimlar tomonidan va qanday usulda boshqaruviga bevosita bog'liq bo'lgan.

Muhammadjonov o'zining "Quyi zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi" nomli monografiyasida Buxoroda qishloq xo'jaligi sohasining asosiy tarmoqlarini maxsus tadqiq etib, unda suvdan foydalanishning yaxshilanishi oqibatida iqtisodiy taraqqiyotning jonlanishi, suvni yetkazib berish, ayirish, tashlab berish, taqsimlash tizimining umumiy qiyosiy ko'rsatgichlari keltirib o'tilgan - 1860 yillar o'rtasida qadimdan saqlanib, hali hamon foydalanib kelinayotgan kanallar, tug'onlar, suv ayirg'ichlar, koriz, sardoba va boshqa suv inshootlarini hisobga olmaganda, biroz bo'lsada jonlanish bo'lganligini ko'rsatadi. Albatta o'lkadagi bir muncha rivojlanish, jonlanishning birinchi sababi Rossiya bosqini va istilosi bilan bog'lik bo'lsa, ikkinchi sababi sug'oriladigan unumdor yerlar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Janubiy O'zbekistonda xususiy mulkka aylana boshlanganligi bilan bog'liq edi.

Chor Rossiyasi hukumati turli xil yo'llar bilan Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi ustidan o'rnatilgan o'z xukmronligini yanada kuchaytirish bilan bir qatorda, SHarqda o'z mavqeini mustahkamlashdan o'ta manfaatdor bo'lganligi sababli ham, barcha vositalar bilan inglizlarning O'rta Osiyoga suqilib kirishining oldini olishga harakat qila boshladi.

Bizga ma'lumki, Qo'qon xonligining to'la chor Rossiyasiga qo'shib olinishi, Buxoro va Xiva xonliklarini qisman bo'ysundirilishi ingliz-rus aloqalarining, ayniqsa, Yaqin SHarq masalasi bo'yicha raqobatni yanada keskinlashuviga olib keldi. Ushbu kelishmovchilik hatto Angliya bilan Rossiya o'rtasida o'zaro shartnoma imzolangandan so'ng ham to'xtamadi.

Shunday qilib. Amir Muzaffar davrida Buxoro amirligi Rossiya tomonidan istilo etildi. Amir Abdulaxad va Amir Olimxon hukmronligi vaqtida Buxoroda rus podsho hukumatining mavqei mustahkamlandi. Buxoro bosqinidan keyin tuzilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgach, Mang'itlar sulolasi tugatildi.

TAYANCH SO'ZLAR IZOHI

O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha
ADOLAT.	Spravedlivost', vernost'.	Fairness, faithfulness.
AQIDA	Religioznaya traktovka,	The Religious interpretation.
AMIN	doverennaya litso pravatelya	fiduciary of the ruler
AMIR	Emir, glava ispolnitelnogo vlasti.	The Emir, chapter executive authorities.
BURJ	Высшая точка стен крепости. Вышка.	Vysschayaya point sewer fortress. Vyshka..
VAQF	Odin iz form sobstvennosti bez prav prodaji, no spravom zaveshaniem.	One of the property categories without rights of the sale, but spravom by covering
VAQFKOR	Rabotayushiy na zemle vakf.	Working at the land vakf
VAQFNOMA	Sveditel'stvo o vakfax ili dokument	Sveditel'stvo about vakfax or document
VALIAHD	Naslednik trona	Legal successor of the throne
DASTURXONCHI	Otvetstvennyy chinovnik na priyom gostey pri emira.	The Responsible official on receiving the guests at emir
DEVONBEGI	CHin posle emira, otvetsvennyy gosudarstvennyx rabot..	Rank after emir, otvetsvennyy state work
DODXOH	CHinovnik pri priyome emira. Reshaet i slushaet zayaviteleya zayavlenie.	The Official when receiving the emir. Solves and listens the proposer a statement.
IQTO	Zemlya vydannye Pravitel'stvom za voznagrazhdeniya zaslugе перед gosudarya.	The Land issued by Government for remunerations zaslugе before gosudarya.
IQTODOR	Vladitel' darennyx zemlem osvabozhdennyx ot chasti nalogov, ili polnost'yu.	Vladiteli presented land osvabozhdennyx from a part of taxes, or polnost'yu..
QOZIKALON	Верховный судья.	The Sovereign judge.
MANG'ITLAR.	Mangity-dinastiya Buxarskix emirov (1753-1920)	Mangity-dynasty Buharskix emir (1753-1920)
MIYONQOL	Region nahodyashchisya v Samarknde mejdru Akdarya i Karadarya promejutok zemli nazvany Miyonkol.	The Region residing in Samarknde between Akdariya and Karadariya gap of the land is named Miyonkol.
MIROB	Raspredelitel' vody dlya poliva v regionax Tsentral'noy Azii	Distributor of water for poliva in region of the Central Asia controlling official

	kontraliruyushiy chinovnik	
MIROBBOSHI – Buxoro amirligida suv ta'minoti boshlig'i.	CHinovnik raspdeleniya vody v Buxarsom emirate	Official of raspdeleniya water in Buharsom emirate
MIRSHABBOSHI	CHin. Glava mirshabov (voenno nachal'nik) pri emira	The Rank. Chapter mirshabov (military chief) at emir
SADR — vaqf mulklarini boshqaruvchi.	Upravlyayushiy sobstvennost vakf.	The Control property vakf.
SOHIB XABAR	CHin. Peredayushiy informatsii pri praviteleya.	The Rank. Transmitting information at ruler
SOHIB HARROS, RAISI HARROS – zindonlar amiri, boshlig'i (saljuqiylar davrida).	Pravitelj (Nachal'nik) tyurm pri emira.	The Ruler (the Chief) tyurm at emir.
SOHIBI DEVON	Glavnyy ministr. Devonbegi.	The Main minister. Devonbegi
SOHIBI MUAYYAD	Ministr svyazi i informatsii.	The Minister relationship and information.
SOHIBI SHURAT	Voennyy ministr	Military minister
TO'PCHIBOSHIYI LASHKAR	Voенno nachal'nik pri emira.	The Military chief at emir.
TO'RA	Klichka сына	Moniker of the
O'LPON	Nalog	Tax
O'LPONCHI	Sborshik i chin sobirayushiy nalogov	Picker and rank collecting taxes
XAZINACHI	Kaznacheystvo pri emira, on otvechaet za soxraneniya sobstvennost', ambarov.	The Treasury at emir, he has charge of conservations property, barn
HUDAYCHI	Organizator meropriyatie pri emira	The Organizer action at emir.
HUJRA	Komnata projiyayushiy uchashixsya pri madrase	Room living uchashixsya at madras
CHORAKORLAR	Sluga pri bogachax.	The Servant at rich man

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Каримов И.А. “Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир”.- Т.: “Ўзбекистон”. 1995.
2. Каримов И.А. “Тарихий хотрасиз келажак йўқ”.- Т.: “Шарқ” 1998.
3. Каримов И.А.Ўзбекистон мустақиллика эришиш остонасида. Т.: Ўзбекистон. 2011.
4. Каримов И.А. Истиқлол йўли: муаммолар ва режалар. 1 том. –Т.: Ўзбекистон.1993.
5. Каримов И.А. Элни Ватан манфаати бирлаштиради. 1 том .
6. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.-Т.:Ўзбекистон, 1996.
7. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон..2007.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi' Asosiy qonun. Toshkent “O'zbekiston” 2012-yil.
9. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risidagi” qonuni. Toshkent “O'zbekiston” 1997-yil.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash miliy dasturi. Toshkent “O'zbekiston” 1997-yil.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Akademik litseylar va kasb hunar kollejlari tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida” 1998-yil, 24-fevralda qabul qilgan qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining. “O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi” 1998-yil, 27-iyulda qabul qilgan qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining uch kitobdan iborat “O'zbekistonning yangi tarixi”ni nashrga tayyorlash va nashr etish haqida 1996-yil 13-dekabr qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sog'lom avlod” davlat dasturi to'g'risida”di 2000-yil 15-fevral qarori.

15. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т.: “Ўқитувчи”. 1994.
16. Ахмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. Т.: “Ўқитувчи”. 1991.
17. Асқаров А. Ўзбек халқининг этнogeneзи ва этник тарихи. Т.: 2007.
18. Айни С, История мангитских эмиров (Собрание сочинений в 6 томах), т.6, Москва, 1975.
19. Ахмад Дониш. Наводирул вақое. Т.: «Фан», 1964
20. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Т.: “Фан”. 1991.
21. Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи, Т.: 1996.
22. Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар.- Т.: “Фан”, 1996.
23. Ибрat. “Фарғона тарихи”.-Т.: “Камалак”, 1995.
24. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Тошкент. “Шарқ”. 2000.
25. Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. -Т.: “Шарқ”, 1998.
26. Зиёев Х. Тарихнинг очилмаган саҳифалари. Т.: “Меҳнат”. 2003.
27. Жураев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. Т.: “Маънавият”. 2008.
28. Раҳмонқулова З.Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаёт. Т.ф.н. дисс. Т. 2004
29. Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. —Т.: 1992,
30. Рахматов М. Мангитлар уруғи тарихидан.// Ўзбекистон тарихи ёш тадқиқотчилар нигоҳида. Т.: “Ўзбекистон”. 2010.
31. Ражабов К. Хасанов Ф. Туркистоннинг Россия империяси томонидан босиб олиниши (XIX аср ўрталари-1917 йил февраль). ЎзМЭ. 12-жилд.
32. Кисляков Н. А Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX-насҳале XX вв. - М.:

Изд-во АН СССР, 1962

33. Холикова Р. Россия-Бухоро: тарих чоррахасида.-Т.: “O’qituvchi” НМИУ, 2005.
34. Фитрат, Амир Олимхоннинг ҳукмронлик даври, Т., 1992;
35. Ўзбекистон халқлари тарихи.-Т.: Фан. 2-қисм. 1993 й.
36. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1–жилд
37. ЎзМЭ.2-том.-Т.: ЎМЭ. 2001
38. ЎзМЭ. 6: 11 –жилд.
39. Yorqulov H.O. Yarkulov A.A. Qosimov E. Tarixdan qisqacha izohli lug’at. Т.: 2014.


Enternet ma’lumotlari.

40. www.ziyo.uz
41. www.kitob.uz
42. www.tdpu.uz
43. www.gov.uz

ILOVALAR

Ilova № 1

Buxoro amirligidagi saroy unvon va mansablari



Buxoro xonligida yer egaligi.

